


74 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MIRSAGATOVA NARGIZA SAYFULLAYEVNA

TALABA-YOSHLARDA
MA'NAVİY VA MODDIY HAYOT
UYG'UNLIGI FAZILATLARINI
TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARНИНГ О'RNI

(metodik qo'llanma)



Y-7274

TOSHKENT-2011

KIRISH

*"Vatanimizning kelyagi, xalqimizning ertangi kum,
mamlakatimizning jahon hamjamyatidagi obro'-e tibori
avvalambor farzandlarimizning uib-o'sib, ulg'ayib,
qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir.
Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon
umutmasligimiz kerak"*

I. Karimov

Mustaqillik yillari O'zbekiston Respublikasi, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda toni ma'noda tub o'zgarishlar davri bo'ldi. Respublikada huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish bozor iqtisodiyotini shakllantirishning istiqbol rivojlanish yo'li sifatida e'tirof etilganligi barcha sohalarda bo'lgani kabi shaxs dunyo oqarashini o'zgartirish, uni totalitar tuzum davri maskuraviy sarqitlaridan halos qilish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Har tomonlama barkamol avlod tarbiyasi barcha davrlarda ham muhiun bo'lgan eng dolzarb masaladir. Mana shunday mas'uliyatli vazifani awalga oshirish har bir pedagogning asosiy vazifasi hisoblanadi. Barkamol avlodni tarbiyalash uchun ularning ijodiy qobiliyatini o'stirish, mustaqil fikrlesh malakalarini rivojlantrish katta ahamiyatga ega. Pedagoglarning ta'lum-tarbiya jarayonini to'g'ri va muvaffaqiyatli tashkil etishlarida talaba-yoshlarning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini hisobga olish samarali natijalaridan biridir.

Hozirgi kunda ta'lum-tarbiya jarayoniga o'ziga xos zamонавиy talablar qo'yilay otganligi barchamizga ma'lum. Ta'lum-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalar, innovatsion o'qitish va muloqot texnologiyalarini qo'llashga bo'lgan talab kiundan-kunga kuchayib bornmoqda. Bizga ma'lumki, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda ta'lum oluvchilarga o'qituvchi tononidan faqat tayyor bilimlar berilgan va shu berilgan bilimlarni qanday bo'lsa shundayligicha egallashga o'rnatilgan bo'lsa, innovatsion ta'lum, egallashlari lozim bo'lgan bilimlarni o'zları qidirib topishga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zları kelurib chiqarishlariga o'rnatadi. Mana shu tarzda tashkil etilgan ta'lum-tarbiya jarayonida o'qituvchi talaba-yoshlarning har tomonlama shakllanishi, rivojlanishi, bilim olishi, hamda ma'naviy-axloqiy faz-

lattarni o'zida mujassam etgan avlod bo'lib voyaga etishlari uchun sharoit varatadi.

Hozirgi kunda ta'llim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, samaradorligini oshirish tadbirlari – ta'llim tizinni demokratik va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan tarzda tashkil etishni talab etadi. Chunki, insonparvarlik g'oyalari va tamoyillari milliy g'oya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, insonning ma'naviy va moddiy farovonligini, erkin, mustaqil, ijodiy faoliyatini, o'zaro hamkorligi, do'stligi, hamjihatligi, birdamligi va bir-biriga g'amxo'rligi kabi yuk-sak, insoniy fazilatlarni o'zida mujassam etadi. Odilik, halollik, pok-lilik, to'g'rilik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, odoblilik, vijdonlilik, imyon-e'tiqodlilik, saxiylik, qanoatlichkeit, kantarlilik, oljanoblik, el-yurt manfaatini o'z manfaatidan ustuu qo'yish kabi yüksak ma'naviy axloqiy fazilatlar ham insonparvarlikning namoyon bo'lishidir. Bu esa, o'z-o'zidan, uzlusiz ta'llim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish hamda talaba-yoshlarda ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi fazilatlarini takomillashtirish ehtiyojini kun tartibiga qo'yadi. Zero. Prezidentimiz I. Karimov ta'kidlaganidek, " kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslii tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir

Bu muqaddas zaminda yashayotgan har qaysi inson o'z farzandining baxt-u saodati, fazl-u kamolini ko'rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi, o'zini ayamaydi"

Farzandlarimizning baxt-saodati, fazl-u kamolini ko'rish uchun qiladigan mehnatimizdan biri bu ularga ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi haqidagi tasavvurlarni singdirishdir. Zero, ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi — inson umrining mezonidir.

E'tibor bering: inson dunyoga kelgan oudanoq o'zining jismonai va aqlan kamol topishi uchun zarur bo'lgan ona sutiga va ona allasiga ehtiyoj sezadi. Biri ikkiuchisiz murg'ak go'dakning komillik darajasiga yetishishida kifoya qilmaydi. Demak, inson farzandi dunyoga kelishi bilanoq moddiy va ma'naviy olaniga zarurat sezadi. Murg'ak qalbning dunyoga kelgan ilk kundan oq ham jismonai, ham aqlan kamol topishiga e'tibor qaratish kelajakka bee'tibor bo'lmastik, unga o'ta mas'uliyat bilan qarash demakdir.

Shu boisdan bo'lsa kerakki, Prezidentimiz bu ikki olamni bannisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslashadi. Yana aytildiki, «Qachonki ana shu ikki muhim emil o'zaro uyg'unlashsa,

tom ma'nodagi qo'shi qanotga aylausa, shundagina inson, davlat va jariyat bayotida o'sish-o'zgarish, yuksalish jarayonlari sodir bo'ladı.

Biz istiqlooling dastlabki yillaridan boshlab xalqimizning asrlar davomida inilib kelgan orzu-maqsadlari va zamon talablarini, dunyo-iy taroqqiyot mezonlarini hisobga olgan holda, jamiyatimiz bayotida ana shu ikki omilning uyg'ut tarzda rivojlanishiga alohida c'tibor qaratdik. Mustaqillik biz uchun nafaqat iqtisodiy, balki beqiyos ma'naviy imkoniyatlar manbai ekanini anglab, mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatini, iqtisodiy-ijtimoiy yangilanish jarayonlarini aynan shu asosda tashkil yetishga ustuvor ahamiyat berdi.

Shu o'rinda ba'zi bir siyosatchi va nazariyotchilarining, oldin moddiy bayotni, keyin ma'naviy masalalarni o'ylash kerak, degan mazmundaqti fikrlari mutlaqo xato bo'lib, yangi jamiyat, yangi hayot qurish jarayonida saqat zarar etkazishi mumkinligini bugun bayotning o'zi har qadamda tasdiqlab bermoqda.

Moddiy va ma'naviy hayot uyg'unaligi masalasi bugungi muammolardan birimi? – degan savol tug'ilishi tabiiy. Taringa nazar tashlasak, ne-ne buyuk allommalar ayni shu masala yuzasidan ko'phab asarlar yaratishgan. "Misol uchun, qadimiy hind, xitoy yoki yunon saylasularini olasizmi, o'rta asrlardagi Sharq va G'arb Uyg'onish davri namoyandalarini olasizmi. islon olamida nom qozongan mutafakkir zotlarni olasizmi – ularning ilmiy merosida moddiy va ma'naviy olam o'rasi-dagi munosabatlarga keng o'rinn berilganimi ko'rish mumkin.

Masalan, antik davr saylasulari bo'lmishi Sokrat va Platon, Epikur va Demokrit, xitoy domishmandi Konfutsiy va boshqa allommalarining bu boradagi nazarli qarashlari fan tarixidan yaxshi ma'lum. Ularning ayrimlari ruhiy olamni birlanchi deb bitsa, ba'zilari esa meddiy olamini asosiy o'ringa go'yadi.

Ana shunday tushuncha va tasavvurlar asosida keyiachalik materializm va idealizm kabi ta'llimotlar maydonga chiqdi. O'ylayman-ki, bu o'rinda ularning tarixi, ma'no-məmənuni haqida batassil to'xalib o'tishning hojati bo'lmasa kerak"

Sharq mutafakkirlari bu mesalaga ko'proq nafs nuqtai nazaridan, saxovatpesha, insonparvar bo'lish kabi insonga xos ijobiliy fazilatlarini targ'ib qilish orqali yondashishgan. Masalan, buyuk mutafakkir shoit Alisher Navoiyning quyidagi ikki satri insonning dunyoga kelishdag'i tub mohiyatini, yashashdan maqsadini yaqqol oehib bergan:

Tut bargichalik qimmatning yo'qmi.
Ipak qurtichalik himmatning yo'qmi?

Naqadar purna'nno fikr!

Navoiyning yaqin do'stlaridan biri Sayyid Hasan Ardasher edi. Bu lo'g'tida Navoiy o'zining "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" risolasida hikoya qiladi. Sayyid Hasan Ardasher der ekanni, mol-u dum odan mast bo'lmoq, ichkilikdan (chog'ir) mast bo'lgan singari emas. Chunki chog'ir (ichkilik)dan kishi o'sha kuni mast bo'ladi. So'ng bu mastlik o'tib ketadi. Ammo mol-u mulk, boylik, amaldan (joh) tug'iladigan mastlik, joh (tamal) bor ekan o'tib ketmaysdi. Bu qanday chirkin ichkilikdirki, uning sarmastligi odamni uzoq yillar o'zidan bexabar qilg'ay.

Yana Navoiy "Mabbub ul qulub" ("Qalblarning sevklisi") kitobida himmatsiz kishining yanada aniqroq belgisini ko'rsatgan. Navoiy himmati yo'q kimsani er deb hisoblab bo'lmaydi, deydi. Ruh inson ochun qanday bo'lsa, himmat ham shunday. Demak, Navoiyning fikricha, himmat tirklik boisi, himmatsiz odam munda kabidir. Muna Navoiyning o'z so'zlari: "himmatsiz kishi er sonida emas. Ruhsiz badamni kishi tirk demas".

So'zimizni buyuk olim Abu Rayhon Beruniyning (973-1048) "Mineralogiya" kitobida yozgau sikrlari bilan yakunlamoqchumiz: "Men ko'p nozik-nihol raqqosalarning latif raqslarini tomosha qildim: Go'zal parichehra soqiylar qo'tidan rohatlandim. Ammo hech bir totganim lazzallar, mendan yaxshilik ko'rgan kishilarning minnatdorlik bilan boqishlaridan topgan farog'atimga barovar bo'laolmaydi". Demak, kishi eng yuksak lazzatni o'zgalarga yaxshilik qilganida oladi. Chin insoniy rohat ham shu.

Filologiya ganlari doktori I.J. Yuldashev.

I. MA'NAVIY VA MODDIY HAYOT UYG'UNLIGI — INSON UMRINING MEZONI

Ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi masalalari barcha zamanlarda hami mulim bo'lgan eng dolzorb mavzu ekan, bugun XXI asrda o'tmishga nazar tashlamay ilojimiz yo'q. Talaba-yoshlarda ana shu fazilatlarni tarkib topirishda pedagoglardan juda katta kuch-g'ayrat, mehnat va shijoat talab etiladi. Bu maqsadni amalga oshirish ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri tushkil etishni talab etadi. Shu o'rinda savol tug'iladi: xo'sh, bayrli ishni qanday amalga oshirish mumkin? Bu masalaga oydinlik kiritishda allomalarning bu borada bildirgan fikrlarga murojaat etamiz.

Ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi allomalar talqinida

Roziy Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo — aqli, idrekli insonlarni ulug'lagan hamda odamlarni, tabiat hodisalarini o'rganishiga va im-fanni egallab, baxth hayot qurishga ma'naviy va moddiy hayotning hamma lazzatlaridan oqlona bahramand bo'lishiga undagan. Uning ta'kidlashicha, "keragidanda ortiqcha mulk dunyeda adolatsizlikka olib keladi."

Jamiyat a'zolari uchun "o'rtacha me'yori" bo'lishi kerak. Roziy fikricha insonning qadr-qimmati, mol-mulki bilan emas, balki uning jamiyatga qanechalik soyda keltirishiga qarab belgilanadi.

Abu Nasr Farohiy — o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida shahar hokiminining fazilatlarini sanash orqali barcha insonlarni shahar hokimi kabi bo'lishga chorlaydi. Fozillar shahri hokimi, avvalo, to'rt muchasi sog'lom bo'lib, o'ziga yuklangan vazifalarini bajarishda biror a'zosidagi nuqson halal beruvasligi lozim, aksincha, u sog'-salomatligi tusayli bu vazifalarini osou bajarishi lozim; bunday shahar hokimi tabiatan nozik farosatlari bo'lib, suhbaitdoshining so'zlarini, fikrlarini tez tushunib, tez ilg'ib olishi, shu sohada unumiy ahvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi zarur; u anglagan, ko'rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarini notirasida ro'la-to'kis saqlab qolishi, barcha tafsilotlarni emutmasligi zarur; u zehni o'tkir, zukko bo'lib, har qanday

narsuning bilinat-bilinmas atomallarini va u atomallari nimani anglatishini tez bilib, sezib olishi zarur; u fikrini ravshan tushuntira olish maqsadida, chitoyli so'zlar bilan ifodatay olishi zarur; u (ustozlardan) ta'lim olishiga, bilim ma'rifatga havashi bo'lishi, o'qish, o'taganish jarayonida sira charehamaydigan, buning mashaqqatidan qo'chmaydigan bo'lishi zarur; taom yeyishda, nablak toplashda ochofat emas, aksincha, o'zini tiya oladigan bo'lishi zarur; it haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevadigan, yolg'onmni va yolg'onchilarini yomen ko'tradigan bo'lishi zarur, u o'z qadtni bileychi va nomus-oriyatli odam bo'lishi, pastkashliklardan yuqori turuvchi, tug'ma olimimurat bo'lishi, ulug' oliv ishlarga intilishi zarur; bu dunyo mollariga, dinor va dirhamlarga qiziqmaydigan (mol-dunyo ketidan qiymaydigan) bo'lishi zarur; tabiatian adolatparvar bo'lib, odil odamlarni sevadigan, istibdod va jabr-zulmni, mustabid va zolimlarni yomen ko'ruvchi, o'z odamlariga ham begonalarga ham haqiqat qiluvechi, barchani adolatga chaqituvchi, nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi, barchaga yaxshilikni va o'zi siygan go'zalliklarni ravo ko'ruvchi bo'lishi zarur. O'zi haq ish oldida o'jarlik qilmay, odil ish tutgani holda har qanday haqsizlik va razotatlarga murosasiz bo'lishi zarur; o'zi zarur deb hisoblagan choratadbirlarni amalga oshirishda qat'iyatl, sabotli, jut'atl, jasur bo'lishi, qo'rkoqlik va hadiksirashlarga yo'l qo'yimasligi zarur. Jaholatdag'i odamlar (haqiqiy obodlikni bilmasdan) ba'zilar nazarida boy-badavlat bo'lib ko'rinadigan o'tkinchi, yuzaki narsalarini, mol-dunyoui, jismoniy fazatlarni, xirs-n shahvatni, obro' amal, shon-shubratni haqiqiy baxt, farovoqlik deb o'yloydilar. Shu ne'matlardan har biri jaholatdag'i odamlar nazarida hayotdan maqsad, baxt-saodat bo'lib ko'rinadi. Zotan, (muddiy va ruhiy) ne'matlarning hammasi birkalikda uyg'unlashgan chog'dagina haqiqiy baxt-saodatga erishish mumkin. Juhillar shahrining bir qancha turlari bor. Shulardan biri zarurni ehtiyojlar shahridir. Bunday shahar aholisi faqat badan uchuu zarur bo'lgan narsalar: oziq-ovqat, ichimlik, kiyim-kechak, turar joy shularga erishish uchun bir-birlariga yordam berish bilangina cheklangan odamlardir. Ayrbosh-lovhchilar shahrining aholisi-to'qchilik va mol-dunyoga crishuvda bir-birlariga o'zaro yordam berishni hayotning asosiy maqsadi deb bilganlar. Razotat(tubantlik) va budbaxtlik shahri-bunday shahar aholisi faqat yeyish, ichishda huzur-halovatga erishishga, hissiy lazzatlar, kayfsafoning barcha turlariga intiladilar. Obro'parastik shahri. Bunday shahar aholisi o'zaro bir-birlacini maqtashini, ko'kka ko'tarishini yaxshi ko'tradilar. Ularni o'zga xalqlar so'za ham, ishda ham ulug'lashlarini

istaydilar. Bir-birlarini oldida yoki begonalar ko'ziga ulug' vor, shon-shavkallli bo'lib ko'rinishni xohlaydilar. *Amalparastlar, hukimiyat-parastlar shahri*. Bunday shahar aholisi-barcha xalqlar ularga bo'yusunishini, o'zları hech kimga bo'sunmaslikni xohlaydilar. Ularni fikrakizki g'alabalar, futuxatlar nashidasini surishgo qaratilgandir. *Benomustar shahrinining odamlari sozllar shahri odamlariday baxt-saodatni*, aqlni va boshqa narsalarni biladilar va ularga ishonadilar, ammo ularga amal qilmay, yuqorida aytganimiz jaholatdagi shaharlarning aholisiga o'xshab yashaydilar. *Begoror shahar*. Bunday shahar aholisining nazariy qarashlari va amaliy ishlari avvalroq sozllar shahri aholisining qarashlari va ishlariiga o'xshash bo'lgan, ammo keyinchalik bu yurtga begona g'oyalar asta kirib olib, uning aholisi qarasltlarini butunlay o'zgartirib yuborgan *Adushgan shahar* aholisining fikricha, baxt-saodatiga faqat o'lgandan keyin yetishish mumkin. Usbu fikrlar orqali alloma barchani adolatl shahar aholisiga nos fazilattlar egasi bo'lishga chorlaydi.

Abu Rayhon Beruniyning — "Mineralogiya" kitobida yozilishiha: Mehnat — inson ma'naviy-axloqiy kamolotli asosi bo'lib, u insomni maqsad sari etktaydi. Alloma yozadiki, oziq-ovqat bilan inson yashaydi, avlod qoldiradi; kiyim-kechak kishini zarardan saqlaydi, issiqsovudgaunga kerak bo'ladi, makonunga joy bo'ladi, zarardan asraydi. Oltin va kumaush esa bunday xususiyatlarga ega emas. Ular — har ikkalasi ham tosh, odamni na to'ydira, na chan-qog'ini bosar, na zo'trovlikdan qutqara, na yomonlikdan saqlay oladilar. Ular faqat insonga zarur bo'lgan narsalarni solib olmoqda kerakliklari uchungina maqmaladilar ("Mineralogiya", 13-b.). Beruny ikkiyuzlamachilik, tuhmat, yolg'onchilikni, omonatga liyonat qilish, boshqalar munkini hiyla bilan egallash, xudbinlikning yomon xulq ekanligini aytib, bu yomon xulqlar insomni barcha narsalardan mahrum etadi degan g'oyani ilgari suradi. Shu bilan birga barchani eng yaxshi xulq egalari bo'lishiga chorlaydi.

Yesuf Xos Hojibning — "Qutadg'u bilig" — qut (saodat, baxt)ga elituveli bilim asari hayotiy hikmatlar to'plamidir.

Yesuf Xos Hojib nazarida har bir shaxs jamiyatning og'irini yengilatishga urinmog'i kerak. Buning uchun esa har bir kishi o'z ishi bilan shug'ullanniog'i, halot, pokiza, yashantog'i, o'zining tor shaxsiy manfaatlari doirasidi biqinib qolmasdan el-yurt manfaatlarini ustun qo'yala oladigan darajaga ko'tarilmog'i shart. Alloma o'z asarida butun insoniyatga har tomonlana o'mak va namuna bo'la oladigan misolini pay-

g'ambar a.o.s siyosida ko'tadi. Asarda "Fi sazayili ashabi-n-nabi rizvanallahi 'alayhim" ("Payg'ambar sahibalarining, rizi ollohi alayhim, fazllari borasida") degan sartlavhaning mayjudligi beziz emas. Ushbu bobda muallif payg'ambarning to'rt eshi haqda gapirganida ulardag'i yuksak ma'naviy vislatlarga alohida urg'u beradi"

Aning to'rt eshi-ul avung'i ko'rib,
Kengashchi bular erdi birla turib

Uning to'rt eshi (chahotyorlar) ko'rib ovunishga loyiqdirlar,
Bular (daim) birga turib kengashchi (bo'lar) edilar.

Ularning barchasiga xos bo'lgan xususiyatlar mayjud edi.
Yusuf Xos Hojib bu umumiylikni "o'drum" hamda "budunda egi" so'zlari bilan ifodalaydi:

Eki qadin erdi kudagu eki
Bular erdi o'drum budunda egi

Ikkisi qaynatasi, ikkisi kuyovi edi.
Bular sara (va) kishilar orosida yaxshisi edi (lar)
Ularning birinchi Atiq (Otiq) bo'lgan.

Ikkinci esh -- sahaba Faruq (Faruq) ham o'zi yoshlab turgan jamiyat a'zolarining eng sarasi sifatida tilga olingan. Unga ham til va ko'ngilning burligi xoslanadi. Unga xos bo'lgan asosiy sifat esa dinai xalq o'rtaсида yoyish sifatida ko'rsatiladi:

Basa Faruq erdi kishi o'drumi
Tili ko'ngli bir-teg badun ko'drumi

So'ng, kishi(lar)ning sarasi Faruq edi.
Tili va ko'ngli birdek, xalqning asli edi.

Bu erdi basutchi hadi dinka ko'rk
Shari'at yuzindin ketardi ashrik

Bu maslahatchi, hidoyat qiluvchi, din uchun ko'rk edi,
(U) shariat yuzidan pardal ko'tardi
(ya ni shariatni xalqqa tushun-tirdi).

Uchinchij esh - sahoba Usmon edi. Undagi ma'nnaviy fazilatlar orasida andishalilik, muloyimlik, saxiy va ochiq qo'llilik alohida ta'kidlanadi. Boshqalardan farqli ravishda uning fidoyiligi, moddiy inakoniyatini ayab o'tirmasligi e'tiborga tushadi:

Basa erdi Usman ovuthug' silig
Kishida o'durunish aqi keng alig

Keyingisi Usmon edi. andishali, muloyum (edi),
Kishilar orasida sarasi, saxiy, ochiq qo'l edi.

Fida qildi barin nangi ham o'zin
Yalavach angar berdi ekki qizin

Borini, narsalarini (va) o'zini fido qildi,
Payombar unga ikki qizini berdi.

Oxirgi esh - sahoba Ali qo'rmas, botir, aqli, saxovatli, himmati baland, tadbirkor inson sifatida tasvirlanadi:

Ali erdi munda basaqa talu
Kur ersig yuraklig mengasi tolu

Bundan boshqa sarasi Ali edi.
Qo'rmas, botir, yurakli, aqli to'la edi.

Aqi erdi alg'i yuraki bedug
Biliglig saqinuq ko'r ati bedug

Qo'l ochiq, himmati baland edi,
Bilimli, tadbirli, nomi ulug' edi.

Unsuralmoney Kaykovus — "Qobusnomia" asarning minallisi "Qobusnomia" allomonining o'g'li Gilonskohga pand-nasihatlar tarzida yozilgan ulkan ne'matidir.

Asarning "Mol jam cunoq zikrida" deb nomlangan bobida insonda ma'nnaviy va moddiy hayot uyg'unligi fazilatlarini rivojlantirishda o'ziga vos fikr-mulohazalar yuritiladi. Masalan: "Ey farzand,

o'zingni mol jam etmakin g'ofil tutmag'il va lekin har narsani etmak ulasang jahd qilg'il, toki halollik bila jam bo'lsun va hamisha senga boqiy hamda yoqunli bo'lsun”¹

Bu orqali alloma har bir insonni boy-badavlat hayot kechirish uchun dangasa bo'lmasdan mol toplashga chorlaydi. Lekin boylikka halollik yo'lli bilan erishish lozimligini uqtiradi. Yoki:

“Molni jam etg'ondin so'ng yaxshi saqlag'il va har botil ish uchun uni qo'ldin bermag'il, nedinkim saglamoq yig'ishdin mushkuldir. Agar kerak vaqtida zarur ish uchun olib xarj qilib uni o'mini te'ldirg'il.. Molni doimiy turar deb unga ko'ngil qo'ymag'il. Toki biror vaqt u yo'q bo'lsa tangdil bo'limg'aysan”²

Bu pand-nasihatlarda u insonni mehnat orqali halol topilgan molni to'g'ri saqlash va zarur bo'lgandagina iqtisod qilib ishlash lozimligini uqtiradi shu bilan birga mol – dunyoga berilib ketmaslik boylik ba'zan bordan yo'q bo'lishi ham mumkinligini ta'kidlaydi. Kaykovusning yuqorida fikrlari shaxsda moddiy boylikka nisbatan ongli munosabatni tarbiyalash uchun xizmat qilishi mumkinligini ko'rish qiyin emas. Fikrimizni isboti sifatida yana bir misol:

“Agar molsizlikdan qashshoq bo'lsang aqidan boy bo'lmoqqa harakat qil, chunki mol bila boy bo'lg'ondan aql bila boy bo'lg'on yaxshiroqdir. Aql bila mol jam etsa bo'lar, ayni mol bila aql o'rganib bo'lmas. Bilg'ilki, aql bir qimmatbaho narsaki, uni o'g'ri ololmas. u o'tda yonnas va suvda oqmas”³

Alloma insonlarning eng yaxshi fazilatlarini olarning, xulq-atvorini xislatlarini ham uch xilga bo'ladi: aql, to'g'rilik, javonmardlik (insonparvarlik, saxiylik, qo'lli ochiqlik). Kaykovusning fikricha insonlarning hammasi shunday sisatlarga ega bo'lishini istaydilar. Lekin bu xisatlarga hamma ham erisha olmaydi. Chunki ulardag'i ba'zi xisatlari: sustkashlik, befahatlik, hovliqmalik uning yaxshi hislatga erishishida ya'ni ma'naviy barkamollik yo'luni berkitib qo'yadi. Demak, hammasiga insonning o'zi sababchi.

“Agar moling ko'p bo'lsa uni taqdir va tadbir bila ishga yaratg'il. Nedinkim taqdir va tadbir bila yaroq'on ozgina mol taqditsiz va tadbirsiz ko'p moldin yaxshiroqdir” Yana “Agar mol oz bo'lsa ham

¹ Kaykovus Qosimnoma Toshkent O'qituvchi, 1986 - B-72

² Kaykovus Qobusnoma Toshkent. O'qituvchi 1986 - B-23.

³ Kursiligan nesr, 31 - bet.

Yaxshi saqlamoqni vojib bilg'ilki, har kishi oz narsani saqlay olmasa, ko'p narsani ham saqlay olmag' uvsidur. Mol jam etarda kehinkilik qilmag'il, bu badbaxtlikning shogirdider. O'zingga ranj berg'il, ya'ni o'zing mashaqqat tortg'il, nedunkim mol qiyinchilik bila yig'iladi va koxinlik bila yo'q bo'lur. Denolar debdurlarki, "Harakat qiling, to obodon bo'lg'aysizlar va ozga qanoat qiling, toki mollaringiz ko'p bo'lg'ay, yunishoq tabiatli va shurin so'z bo'ling, do'stingiz ko'p bo'lg'ay".¹

Demak, mehnat evaziga topilgan boylikni g'aflatiga bolib qo'ldan osonlikeha boy berish axmoqlikdir desa, shu bilan birga topgan molga nisbatan o'ta ziqnalik, qattiq bo'lish badbaxtlikning bir alomatidan darakdir deb uqiradi. Shu bilan birga har qanday sharoitda ham sabrit, qanoatli bo'lish lozinligini va shundagini xalq hurmatiga sazovar bo'lish mumkinligini ta'kidlaydi.

Mol har qancha aziz bo'lsa ham uni do'silardin darig' tutmag'il. Har holda molni go'ringga olib botmagungdur. Ammo dahling - na chog'liq bo'lsa, xarjing ham ul miqdor bo'lsun. Shunda senga qashshoqlik mashaqqati yuzlanmag'ay. Har kishiki xarjini dahlini oz qilsa, hech vaqt qashshoq bo'lmagay. Bor molingga qanoatda bo'lg'il, qanoat tugalmas ganjdur va senga taqsimi etilg'on nasiba, kundalik ovqat senga, albatta yetishgusidir.²

To'g'ri, deydi alloma, mol yoqimli, azizdir lekin u har qancha aziz bo'lsada uni o'zing bilan go'rqa olib ketolmaysan. Daromading qancha bo'lsa, shunga qarab xarajat qilsang hayoung yomen bo'lmaydi, kamibag'al bechora ham bo'lib qolmaysan. Boriga shukr qilsang, eritas kungi nasibangni topasan, ko'nglingni xotirjam qil, demoqchi bo'ladi. Shu bilan birga, "Qobusnom" asari insonga to'g'ri ro'zg'or tebratish yo'llarini ham o'rghanish mumkinligidan darak beradi. Banday xulosaga kelishimizga quyidagi paud-nasihatlarini asos qilib oldik.

"Ro'zg'orningning zaruriy ishlarida taqsir muqson ko'r-guzmag'il. Joningga jabr qilmag'il: mol har nechakim azizdur, ammo joningdan aziz emasdир. Mol jam cunakda xato qilmag'il, har odam o'z ishida xato qilsa saodudan mahrum bo'lg'ay muddaolaridin bebahra qol-g'ay, nedunkim, rohat mehnatdador. Shundoqki, bugmining rohati kechagi mehnatning natijasidur. Har narsa qo'lingga tushsa: bir tangadan ikki hissani o'z oilangga xarj etgil, bir hissani qarilg'i va

¹ Kaykovus Qorasnovning Toshkent Chaytivchasi, 1986. - B.73.

² Kohnidigan year. 75 tel

ojizlig' vaqtini zaruriy ishlariiga ehtiyoj qilib qo'yg'il va undan ko'z yumib, aslo unga qo'l urmag'il. Qolgan ikki hissani o'zingni ziynat va asbobingga sarf etgil'

Bu mulohazalar har bir insonni ro'zg'or ishlariiga o'ta e'tiborli bo'lish, ro'zg'orning to'kis bo'lishi uchun doim mehnat qilish lozimligini nqtirib, kechagi mehnatning natijasi bugungi tetli rohat ekanligini tushuntiradi. Mana bu fikrlardan ta'llim-tarbiya jarayonida o'rini soydalinish shaxsda otlaparo arlik fazilatlarini tarbiyalash mumkin.

Kaykovus "Qobusnoma" sida o'ziga xos hikoyatlardan mohirona soydalangan. Quyida biz "Tijorat va bozorgontlik rasmi zikrida" deb nomlangan bobdagi bir hikoyatni keltirishni lozim deb topdik.

Hikoyat: Shundoq eshitdimki, bir kishini qo'yulari bag'eyat ko'p edi. U har kuni qo'yularni sog'ib, bar na besil bo'lg'on sutni qo'y egasining oldiga kelturur erdi. Qo'y egasi ul sutga yarim hissa suv qo'shib, cho'ponga sotg'il deb berur erdi. Cho'pon unga bundoq nasihat berur erdi: "Ey xo'ja, musummonlarga xiyonat qilmag ilki, o'zingga zarar etkarursan" Ul kishi cho'ponning nasihatini eshitmadи va ul ishni qilut erdi.

Bir kecha behor vaqtida cho'pon qo'yularni oseyishi uchun bir sel oqadig'on past joyga qo'yish va o'zi baland joyga chiqib uquga bormish erdi. Ittifoqo ko'p yomig'ir yog'ib, sel oqib ketib qo'yularni oqizib ketdi va barcha qo'yilar halok bo'ldi. So'ngira cho'pon shaharga keldi. Qo'y egasi unga dedi: "Bugun nima uchun sut kelturmading?" Cho'pon dedi: "Ey xo'ja, men senga nacha bor."

"Sutga suv qo'shmaq'il, oxirini o'ylag'il" — dedimi. Lekin mening so'zimni hargiz eshitmadning. Oxiri sutga qo'shg'on suvlaring hammasi eg'ilib, o'tgan kecha bir sel bo'lib shunday oqdiki, hamma qo'yularni oqizib ketdi"

Alloma hikoyat orqali inson ma'naviyatidagi notugallik uning moddiy jihatdan ham qiyunalishiga sabab bo'lishi mumkin demoqlan

Ahmad Yassaviy ko'ngli yarim g'ariblarga yordam bering, kishilardan bir og'iz shirin so'zingizni darig' tutmang, birovlardan himmat-muruvvatingizni ayamang, yetuularning boshini silang, zdin qilang, o'zgalarning dilini og'ribnang kabi likrlari talaba-yoshlarda ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi fazilatlarini takomillashtirishda ahamiyatiga ega.

Zotan, "Mutafakkir bobomiz Ahmad Yassaviyning inson ma'naviy kamolotga intilib yashashi lozimi, ko'nglida e'tiqod yo'q odam esa

¹ Korsatdiganlari, 74 - bet

"inson nomiga nomunosibdir" degan iibratli hikmatlari fikrimizning yorqin ifodasidir. Yassavyi merosida poklik, halollik, peshona teri va halol mehnat bilan kun kechirish, mehr-maruvvatli bo'lish, insonga xos bo'lmaagan ishlardan nafratlanish, rostgo'ylik, hezorlik, insoniy soflikni saqlashga, nafs quliga aylanib qolmaslikka bo'lgan xatti – harakat beqiyos darajada nsluganadi.

Umar Xayyom -- Yer yuzidagi hamnia narsa omonat eknligi, inson hayoti ham soniy-vaqtincha ekanligi, demak, hayotning zavq-safolaridan foydalana bilish, bekorchi o'y-hayollarga berilishda ma'no yo'q, tashvishlar bilan o'zini qiyashga bojal ham yo'q, hayot qanday bo'lsa, shunday shodu hurratlik bilan yashash kerakligini ma'qullaydi. Yashaganda o'zini turfa tashvishlarga ko'mub tashlanmaslikka, boylikka, hashamatga va shon-shavkatga intilavermaslikka chorlaydi. Umar Xayyomi ruboiylarida dunyonni o'zgartirish, undan azob uqubatni, zo'ravonlikni zulmni haydab chiqarish, yovuzlik, baxtsizlik va inson iztiroblarini tugatishga harakat qilish zarurligini targ'ib qilgan:

Beylikdan ko'paymas aql yo hunar,
Ammo pul bo'lmasa xun bo'lar jigar.
Seraqcha atirgul yashnar quyoshda,
Binafsha soyada bosh egib turar.

Bu hirs maydoniga kirgan amaldor,
O'zi mashaqqatdan jonidan bezor.
Ammo kum ulardek hirsiga asirmas,
Odam hisob etmay o'tishar beor.

Mol-u duny o hasrati qilmasin asgor.
Mangu yashar kishi qani, qayda bor?
Bir necha nafasing tenda omonat.
Omonatga omonat bo'lmoqlik darkor.

Kimningki bor bo'lsa bir burda noni,
O'ziga yarasha uy-oshiyoni.
Na birov unga qual, na u birovga,
Ayt shod yashayversin, xushdir zamoni.

Namoz, ro'za degin, bo'ldi imkoning,
Kimsadan ayonna bir burda noning.

Kishini canjuna, g'iybatin qilma.
Shunda senga boqar ikki jahoning.

Abdulkholiq G'ijduvoniy "Vasylatnomasi" asarida shunday deydi: "Inn o'rganmasdan turib, ishg'a kirishmag'il, boylikka xirs qo'ymag'il... Odamlarni naqtoviga uchmag'il va alarning muhokasmasidan xafa bo'limg'il... Ulamolarni surmat qilg'il, shayxlarga xizmat qilg'il, alardin mukkingni tyamag'il, alarning g'azabini keltirmag'il, doimo ehtiyyot bo'lg'il darveshlilik boylik deb bilmag'on, oddiy o'rinni faxriy o'rinn deb bilmag'on, ilmni uodonlik hisoblag'on, o'zining pishonu oshkor ishlarini sarhisob qila olmaydig'on, oxiratni uning'on odamlar ila o'rteq va og'a-ini bo'limg'il"¹ Bu fikrlar har bir xattiharakatni o'ylab bajarishga do'st tanlashida nimalarga ahamiyat berish kerakligiga o'rgatadi. Boylik, va mansab ketidan quvmaslikka, nafsmi tiya bilish kerakligini halol yo'l bilan mehnat qilishga chorlaydi.

Muallifning o'g'liga qilgan vasiyatlaridan shuhratlab bo'tma, kam ye, oz uxla, hamisha halol va pok yasha, halol ye, kam gapir, har bir kishiga inchr-shafqatli bo'l. Mehribon bo'l, hech kimga past nazar bilan boqma va uni tahqu etma, birovdan aslo biror narsa ta'mia qilma, degan o'gilari hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bu fikrlar hozirgi zamон yoshlari uchun ham ulkan tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari u odamlarni mehnat qilish va halol yashashga, molning halolligiga shubha qilsang muga yaxshisi yaqinlashmaslikka chorlaydi: "Halol yegil va shubhadan parhez etil"

Najmiddin Kubro — o'zining nodir asarlarida inson taraqqiyotidagi axloqiy qoidalar, yurish-turish va e'tiqod odoblarini e'tirof etdi. Masalan: *Tavba*-o'z gunoklorni tushuniб, tavba qilib, hayotini eзgu ishlar qilishga bag'ishlash. *Zuhd-taqro-harom-harishdan* hazar qilib, halollikka yuz tutish. *Qanoat-mol-dunyoga* ruju qo'ymaslik, boriga shukr qilish. *Sabr*-bu solikning e'tiqodi, niyatini sinashdir. Insonning har qanday og'ir va mushkulotlarga sabr — qanoat qilishi. Najmiddin Kubro odamlarui insonparvarligi, yuksak axloqiy fazilatlari, mehnondo'stligi, hamdardligi, mardligi, halollikka, poklikka, tenglikka intilishi insonning yuksak olijanobligini ko'rsatuvchi jihatlari ekanligini ta'kidlaydi. Alloma insonning, nafs quli bo'lib qolishdan tiyilishga da'vat

¹ Abdulkholiq G'ijduvoniy. Vasiyatnomasi. Toshkent, 1993. 14-15.

etadi. Zero, nafs bu ınsomni ko'zini ko'r qilib, ınsouiy sıfatlarını yo'q bo'lshiga olib beradigan narsadir deb uqtiradi.

Bahouddin Naqshband — ta'llimotida hamma uchun ma'naviy borch sıfatida lo'quai halol g'oyasi muhim o'tin tutadi, bitovlarni hisobiga yashash imumkin emasligini ta'kidlab "Dil ba yor-u dast ba kor" ya'ni "Dilungni Alloha-y u, qo'lingni ishga bag'ishla" degan ta'llimotni ilgari suradi. Binobarin, bir umr xilvatda o'tirib, toat ibodatda bo'lmay, balki hamma vaqt halol mehnat qilish, boshqalarni vo'tlanaslik va kamisitmaslikni ko'rsatadi, targ'ib qiladi. Bu ta'llimot mehnatga halol ter to'kib hayot kechirishga choldaydi. Ma'naviy va ruhiy poklikni ulkan boylik deb ta'riflaydi. "Xush dar dan" tamoilida har bir ınsон nassini jilovlay bilishi kerakligini, dunyo noz-ne'mallar makoni ekanligini va bularning hammasi vaqtincha ekanligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga ınsон o'zining nassini keraksiz, ortiqcha narsalardan üyishi, keragidan ortiqcha mol-dunyo to'playman deb mukkasidan ketishi kerak emas va bu harakatlar musulmonchilikka xos emasligini aytadi.

Jaleliddin Remiy — «Ma'naviy masnaviy» asarida ma'naviy-axloqiy sıfatlarga ega bo'limgan kishilarga qarata shunday kimsalar borki, yungdan sher niqobin yasaydilar va gadolik qiladilar. Ular go'yo zohiran toriqat sherlarining qiyofasiga kiradilar. Shu yo'l bilan o'zlarining danyoviy maddolariga erishish uchun kurashadilar. Haqiqat-dan ham bunday ınsонlar hech qanday nopoqlikdan bazar qilmaydilar. Bunday holatning ynz bermasligi uchun ınsонlarda ham moddiy, ham ma'naviy hayot uyg'unligi fazilatlarini yoshlik chog'laridan tarbiyalab borish maqsadga muvoziq ekanligini ta'kidlab, bu borada nafs tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi deb uqtiradi. Masalan:

"Nafs (moddiylik) pinbona g'araz bilan ibodatlar va Jon-u ruh ixlosiga nelami onuxta qilmaydi? Ruhning (ma'naviyatning) sofligi tiyraklashadi. Ruh qorong'u tortadi. Jon toqatini yo'qotadi. Dil zimiston bo'ladi. Nafs-xanuk va noshoyista oxleqning majmui. Aytishlaricha, ınsон badanidagi shunday kuchki, barcha yomonlik va razolotning sarchashmasi udir. Nafs odatda ınsон qalbiga toalluqli bo'lgan, yaxshi xulqdir, ilm va ma'tifat asosi-ruhga muqobil"¹ Maylono solikning nafs va uning makrlari ustidan g'alaba qilish necheg'i dushvor ekanligiga urg'n beradi. Nafs qili bo'lish har qanday ınsонни o'zligidan ayrikishiga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi.

"Shuni bilmoq lozimki, amaldan maqsad, ınsон o'z ruhiga takror tulayli (ya ni timsiz harakat natijasida) ma'no va latofat bag'ishlaydi.

¹ Jalekoddin Remiy az Jumev maznaviy. Foshkent. Yangiylod. 2007. E. 31.

Amal ruhi solikning nafsoniy suvraliga aylanib boradi. Tashqi harakat va a'mol behuda bo'lib u asta-sekin chekina boshladi. Toki hoy-u havas, orzu barqaror ekan, hech qanday natija hosti bo'lmaydi. Nafs va vahin amalai barbod etadi shu ma'noda ko'plab odamlar oxirat ilmini talab qilib yurgandek bo'salar-da, biroq niyatlar niyo va avomning e'tiborini o'ziga qaratmoqdan iborat bo'lgani uchun kuni sayim haqiqatdan yiroqlashe boradi. Mansab jahammati va avom friblik domiga chiqquroq cho'kib ogibat kuyib kuf bo'ldi. Savdogarui tasavvur qilaylik. U halol va haromiting nimu ekanini masaldo'ylardan eshitib, qulooqqa olgan, jamoat namozini tark qilmaydi, biroq nafs xurujiga bo'yungan kuyi yomon narsani yaxshi deb pullaydi. Tarozidan uradi, qasauxo'rlik qiladi va hakozo. Lekin ularning hammasiga qaramay pok va vijdonlinan deb qasam iehadi, o'zini mo'min, jannatiy qilib ko'rsatadi, siddiqlar, payg'anbarlarga haqinishin edik, deydi. Ma'lum bo'ladiki, zohiriyl amal ixlos va pok niyat bo'lmasa, soyda bermas ekan. Nafs va vahudan g'olib bo'lgan pok niyat va ixlos sifri va yetira bo'lib, zohirda namoyon bo'lmaydi. Binobarin, nafsning muolajasi va hoyu havasni ildizidan sug'urib tashlamoqning ast rukni bu muemmalot ekan. Solik ishlari ana shundan boshlanog'i lozim¹. Aytarning ushbu mulo-hazalar har qanday insot komil bo'lishi uchun har qanday vaziyada ham o'z nassini jilovlashni bilishi darkor ekanligini uqtiradi.

Husayn Voiz Koshtifiy o'zining "Futumatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati" asarida axloqni poklashni, mehr-shafqali bo'llish, hitamat va mardlik ko'rsatishni, bor narsasini hech kimdan qizg'anmaslikni, qalbni kibru havo, gina-kudrat, hasad-g'azabdan pokiza tutishni, hanima vaqt xalq xizmatida bo'lishni, barchaga muruvvat ko'rsatish va evaziga hech narsa talab qilmaslikni targ'ib etadi.

Alisher Navoiyning ijodi bu boroda ham olkan vazinadir Jumiladan, "Mahbub ul-qulub" asari alohida o'ziga nos ahamiyatga ega. Allomaning asarluriga nazar tashlasak, ularda barkamot shaxs rivojlanishi, uning jamiyatda o'z o'rniiga ega bo'lishi uchun eng zarur omillardan bo'lgan ma'naviy va moddiy hayot uyg'upligi: halollik, poklik, rostgo'ylik, imyon-e'tiqodlilik, sabr-maqomatlilik, insonparvarlik o'zaro g'anno'rlilik, qanoatlilik kabi insomai kemullikka elitavechi fazilatlarni o'zida mujossam etgan shaxs tarbiyasi masalasi o'ta chiqqur ifodalanganligi va mahorai bilan tasvirlanganligining guyohi bo'lamiz.

¹ Moliodek: Quray mahnoviy makonimy. Tashkent. Yangi asos. 2002 -B - 58

Navoiy insonni sharaflaydi, ulug'laydi, uni baxtli bo'lishga, ma'noli hayot kechirishga, buniyodkorlik ishlari bilan shug'ullanishga, hamisha o'zidan yaxshi neim qoldirishga harakat qilishga chorlaydi. Shoir xalq manfaati uchun melumat qiladigan, xalq baxti yo'lida fidoiylik bilan kurashadigan, pok odamlarni haqiqiy inson deb biladi.

Oltin, kumush etuna kasb davlat kuadim,
Kimi torlar adab uhisi mehnat to'nidin.
Gar yo'qtur adab ne sud oltinidin,
Eltning adabi xushroq erur oltinidin

Demak, inson uchun eng muhim narsa bu - oltin- kumush zebu zar, mol-dunyo emas, balki uning odobi-axloqdir.

Adibning "Mahbab ul-qulub" asarida inson ma'naviyatining qanoat, sabr, ta'sim-tavoze, himmat, yafso, ezzulik, kamartlik, nafsi tiya bilish kabi qircalari g'oyatda ibratli, ta'sirchan tarzda tasvirlangan. Masalan, "Qanoat zikrida" shunday satrlarni uchratamiz: Qanoat chashmaedurkim, suvi olmoq bila qutimas va maxzanedurkim, naqdi sepamoq bila o'ksumas va mazraedurkim, shoxi istig'no va shavkat bar berur va shajaredurkim, shoxi istig'no va hurmat samar kelturur".¹

"Ulkin, qanoatqa mu'tod bo'ldi shoh va gado taraddudidin ozod bo'ldi. Maosh uyi garchi bo'lur tor, ammosi har necha mubolag'a qilsang yeri bor Hisoredurkim, anda kirsang, nafs sharridin qutehursev va ko'hsoredurkim, anda chiqsang, dusluman va do'stdin mustaq'niy bo'lur-sen; astodalig'edurki, natijasi sarastrozlig' va niyezmandlig'dur, soydasi beniy o'slig'dur-luxmi bari g'imo va shajaredur samari istig'no; maedur-achchig' va nash osi tarab angezi yo'lidor - qattig', animio manzili farah omeg. Qanoatda nechakim, farog'bol, aksi tama'da razolat va na qol".²

Navoiy kimki, qanoatli bo'lsa, shoh va gado bordi-keldisidan quviali. Tirkchilik oson ish emas, lekin qanoat uni tartibga solib turadi, ya'ni qanoat qo'rg'ondir, u seni nafis yomonligidan humoya qiladi. qanoat tahtdir, unga chiqsang dusluman va do'stga qaramlikdan qutilasan, qanoatning natijasi buyuklik darajasiga erishishdir, zori-qishlikdir-soydasi ehtiyojsizlik, qanoatning urug'i farovonlikdir, qattiq yo'lidor-samarasi xursandehilikdir, deb har bir insonni qanoatli bo'lishga davlat etadi. Qanoat kishiga timchlik va farog'at balish etadi animo ta-

Absher Sharq, Malykut o'stadah Zerzlava, 13 temnik, 13 tum 2, Fergat O'zbek nashridagi indiry odabiyat nashriyoti, 1966, 12-16.

¹ Ushbu qo'sha asar, 3-6-sav.

ma'da razilik va uqubat aks etadi deb. qanoatlilikni yaxshi insoniy fazilatlardan biri ekanligini, tama' esa razolat ekanligini ta'kidlaydi. Bunday mulohaza quyidagi ruboyida ham o'z aksini topgan.

Har kimki qanoat tarafı nisbati bor.
Borchalro tavoze-u izzati bor,
Ulkim tama va hirs bila ulfati bor.
Yaxshi-yomoni ichra zallat-u nakhati bor

Yani:

Har kimning agar qanoatga nishari bo'lsa.
Barcha kishilar o'ttasida izzatli va hummatli bo'lur.
Kimniki tamar hirs bilan ulfati bo'lsa.
Yaxshi-yomoni oldida xor bo'lur va nahs ko'rurur

Navoiy fikricha, har bir inson qanoatlilik fazilatini o'zida mujassan etishi lozimdir. Bu insonni xor-zorlikdan, qaram bo'lib q-lishdan asraydi, qanoat va sabr murodga yetishming bosh omilidir.

Darhaqiqat, hozingi kunda ham sabr qilmay, qanoatsizlik qilib, oson yo'll bilan moddiy boylik oritirishga berilib ketib, oxir oqibat hayotda o'z o'nini topolmay yurganlar bisyer.

Darvoqo. Navoiy «Mahbub ul-qulube» asarining beshinchi "Sabr zikrida" deb nomlangan bobida insoularni sabr bardoshli bo'lishiga, ikki-yuzlauachilikdan xoli bo'lishka, tama'gir bo'lmaslikka chaqiradi.

"Sabr... aqchiqdur, ammo sudmand; qatig'dur, ammo dosei gazand. Qaysi nomurod ilik sabr etagiga urdikim, murod topmadi? Va qaysi guriflor ko'ngul sabr bandig'a qo'ydikim, kushod topmadi? Farahlar muftohidur va bandlar fattohidur." Ya'ni: Sabr – aqchiq, ammo soydası buyukdir, qattiq, ammo ziyon-zahimatni bartaraf etuvchi Sabr tabib, aqchiq dori. Demona yoqimsizdir ammo ohir oqibat bemon darida darmion bo'ladi. deb sabrga ta'rif beradi. Naqadar oqilona va o'tinli aytigan fikrlar, bu o'g'itlarni barkamol shaxslarni tarbiyasida o'ziga xos muhim ahamiyatga ega bo'la oladi deyish mumkin.

Asarning uchunchi qismi bo'lmish "Saxovat va himmat" bobida shoir shunday deydi:

"Himmat ahlig'a agarchi bixik kavkebdur, ammo saxovatg'a necha martabadur. Isrof saxo emas va illofnı ma'no ahli saxo demas. Haq molin kuydurganni devona derlar va yorug' kunda sham'i kosuriy yoqqonni aqldin begona derlar. Mubohat uchun bermak xudnamoliq va

anıng bila o'zinsaxiy demak behayoliq. Ulki el ko'mmaguncha bermas-bil: ibrom bila bergandıı bermaganni yaxshiroq bil. Birta o'nmakni ikki bo'lub, yanın bir ochg'a berganni saxiy de; o'zi emay barını muhtojs'a berganni oxıy de¹

Bu bilan Navoiy himmatlı kishi nochorlikka yuz tutmaydı, himmatlı yo'q kishi xazina topsa ham buyuk bo'lmasaydı. Himmatalı kishining darajasi yüksəkdir, amma saxılık undanda ulug' roqdit. Isrosgarchilik, ya'nı ne'matlı, pulni sarflash saxılık emastığını alohuda uqtıradi.

Sochnoq ovuch birla guhar ot uchun.
Naqd etak birla mubohot uchun.
Aql hisobidin erur bas yiroq,
Buxl bu jidungdin erur yaxshiroq.

Ko'rinish turibdiki, shoir himmat va saxovatning afzalligini tariiflab, odamlarını isrosgarchilikdan saqlanışına da'vat etmeqda. Saxovat va hinnatni o'ylab zarur joylardagini himmat va saxovat ko'rsatish zarurligini ug'tirib, shoir shunday deydi: "Och bo'limganga dasturxon yozish, yalong och bo'limganga to'n kiygazish, yuz yilqisi borga ot tortiq etish, quyosh turini kuchaytirish maqsadida kunduz kuni yuz shamei yoqib qo'yish, birovning mulkinı talab olib, boshqaga benneq ham saxo hisoblanınydı. Bunda bir necha oy chuquq qazib so'ng luproqni ko'minak uchun yana chuquq qazigandek bo'ladi kishi"². Bu bilan shoir saxovatlı, ximmatlı bo'lisingen ham o'ziga xos shiori, odobi borligini, ya'nı kimlarga moravtat va saxovat ko'rsatish darkorligini ug'tirmoqda.

Demak, inson muhtojlamı ko'ra bila turib, to so'rab kelmaguncha himmat ko'rsatmaydigan kishi ham saxiy emasdur deb, haqiqiy saxovat qanday bo'lishini tariiflab, saxovat aslida, qilgan ehsonlarini omnat etmaslik, boriga qanoat qilishlik, muhtoj odamni uchratganda borını u bilan baham ko'rislik va qilgan san ob ishlarını birovga sezdimasligi lozim. Har bir kishi omri davomida faqat boyliklarni, moht davlatni yig'ib yotish omas, balki uni saxılık bilan oqilonqa sarf etishini ham bilishi kerak deydi, shoir:

Naqdni guldek sovurnmagil,
G'uncha kabi dog'i grib armag'ill!

Alisher Navoiy, Ma'lumot o'sqitalab /Avvali
edisnygy/ 1966, 8-5:

¹ Ku rengiga asur. 53 - 5

tonuk c. 13 son 7, o'sqitalab /Muzey nesneleri, bidiy utbisyot

Shoir molu dunyo vig'ib yetgan kishining mulki barbir o'zidi qolmasligini va hatto, bu bolat uni halok etishi munakmligini aytib, bu orqali kishilarda moddiy boylikka ongli munosabada bo'lishini tarbiya lash lozimligini uqtirardi. Ushbu fikr-malohazalaridan saxiylik, o'zi nima uning qanday me'yordari borligi, himmat bu pul bermiak emas, balk betama bo'lishdan iborat ekanligi kabi savollarga javob olish mumkin.

Zahiriddin Muhammad Bobur — asarlarda insoniy munosabatlarni rivojlantirishga, odamlar orasida mehr-oqibat urun'ini sochishga, iymonli-diyonatli bo'lishga, barchani hayetni qadrlash, halol, sof ko'n-gilli bo'lishga, muhtojlarni oyoq-osti qilmastikka da'svat etadi. Uning "Har kimki yaso qilsa, yaso topquisidir, har kimki jaso qilsa, jaso topquisidir. Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz, har kimki yomon bo'lsa, jaso topquisidir" degan falsafiy fikrlari tehsingo sazovardir. Sheir insonning insonligi qo'llidan kelgancha yaxshilik qilish, bir-birini e'zozlay bilishidadir deb odamlarni yaxshilik qilishga chorlaydi. Bobur uchun o'rza yurtdagi boyligi qanchalik ko'p bo'lmasin, ularning hech biri, duru gavhtarlarini, ko'hi mirlari ona yurthung bir qism tuppergiga, bir qoltum suviga, bir karich qovuniyu, bir shingil uzumiga teng kelmasligini o'tirof etadi.

Mirzo Abdulqodir Bedil — hodisalarining ichki mohiyatini chiq-qur tahlil etishga jonti mushohada ojizlik qiladi. Muammoning bu jihatini yagona aql nihoyasiga yetkoza oladi. Aql misli ko'rlimagan g'oyat muhim ne'mat. Bu ne'mati zabt etishga ahd qilgan inson chicksz imkoniyatga ega. Insonning ziynati atlas-u yungdan iborat libos emas. Bu matolar, aksariyot, ot-ulovning ziynati. Insonning qadr-qiminati, aql-zakovat arziga qulog osish, barcha mushkul muammolarni aql mezonini bilan hal etishidadir. Aqilsiz odamlargagini donolar bilan bo'ladigan maloqotdan qechadilar, ularning pand-nasihatlarini nuzar-psaud qilmaydilar, o'zlarini nodonliklarini namoyen qiladilar. Aqilli odam ruhning bir tanadan bitiga ko'chib yurishi - "tanosux"ni rad etadi.

Bedilning fikricha, iymonning nuri aqldadir. Axloqiy fazilatlarga erishishda ilm va axloq yagona negizining egizak jihatlari bo'lib, ular bir-birini taqozo qiladi. Nodon beadas bo'lgani kabi, beadas ilmning qadriga yetmaydi. Axloq-insonning ma'rifiy gavhari. Turli xil illatlar, ayniqsa, hirs shu gavharning zavoldir. Ular tufayli kishida xotirjamlik yo'qotadi, uning tinchligi buziladi. Hayoli beqaror bolatiga keladi. Kuningki "hirs-hayasga ko'zi to'ymaydi, uning gado kosasini to'ldirmoq mahlol" "Jahon talab eigan" miansab, amal, mol-u mulkka fuqar qo'ygan bandalar oql zakovatdan jido, fahum — farosatdan yiroqdadir-

GAN NATIJA-
LAR

KEJGLISI
REJALAR

Halollik va imonlilik fazilatlarini adabiyotlardagi talqini Halollik va imonlilik fazilati mezonlari, imonlilik fazilatining mohiyati.

Shakl: laboratoriya, yakka taribili, kichik guruhlarda, 80 daq.
Metod: "Bunlerang" texnologiyasi
Vosita: tarqatma materiallur, sxema
Usul: babs-munozara, savol-javob, nutq
Nazorat: og'zaki, yozma, o'z-o'zini nazorat
Baholash: rag'batlantirish, mezoniyi baholash

O'qituvchi: Talabalar tomenidan halollik va imonlilik fazilatlarining mazmun mohiyati atni etuqur anglab olishlari va ushbu fazilatlarni o'zlarida yanada mustahkamlanishiga e'ishadi. Talabalar faoliyagini e'shiradi. Talabalarda darsga nishba-tan qiziqish nyg'otadi. Yangi interfaol metodni o'rganishlariga yordam beradi. Mayzoni o'zlashtirganlik darajasini nazorat qiladi, bir vaqtin ichida barcha talabalarni baholaydi.

Talaba: Mayzu yuzasidan nazarli bilimlarni amaly tadbiq etishi malakasi mustahkamlanadi. Yakka va guruhlarda ishilaydi. Nutqi rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi. Interfaol metod haqida ma'lumot oladi va analiyotda qo'llay olishni o'rganadi. O'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladи.

O'qituvchi: Yangi interfaol metodni o'zlashturish va darsga tadbiq etishni, takomillashturish. Adabiyoddar o'qib o'rganish. Mayzoni hayotiy voqeolar bilan bog'lash

Talaba: Matn bilan mustaqil ishlashni o'rganish. Nut-qini rivojlantrish, mavzu yuzasidan qoshincha ma'lumotlar izlab topish, olami o'zlashtirish. O'z fikri va guruh fikrimi tahlil qilish bir yechimiga kelish malakasini hosil qilish.

O'qituvchi tomonidan o'qitilayotgan fanning har bir mashg'uloti uchun ishlab chiqiladigan yugorida keltirilgan texnologik xarita unga sahni bir butun, yaxlit holda tasavvur etib yondashishga, belgilagan maqsaddan erishish lozim bo'lgan natijani oldindan aniq ko'ra olishga yordam beradi. Shu bilan birga talaba imkoniyati, ehtiyojini hisobga olgan holda tuzilishi, uni ta'llim markaziga olib chiqishga, ta'llim jarayonini takomillashtirishiga asos bo'la oladi. Bu xatti-harakat ta'llim samaraderligini osdirishga imkon beradi.

"BAHSLASHUV" TEXNOLOGIYASI

Mashg'ulotning maqsadi: Talabalarning o'zaro munosabatlarini mustahkamlash, bir-birlariga har doim har qanday sharoitda yordam berishga tayyor turishlari lozimligini, guruhda o'zaro hamjihatlikni shakllantirish uchun ushbu texnologiyalardan foydalanib turish o'zining ijobiy natijasini beradi. Chunki bunday bahslar talabalarni har bir masala yuzasidan fikr mulohazali bo'lishga, o'z fikrlarini charxlab olishga va shu bilan birga turli muammolarga nisbatan munosabatlarini aniqlab olishga yordam beradi. Mayzularni talabalar taxiyoriga havola etgan holda tanlanishi va albatta, tanlangan mayzular qiziqarli, bahsmunozara yunitishga chorlovchi, muammoli bo'lishi maqsadga muvoqidir. Bahslar talabalarni ba'zi yanglish fikrlarga qarshi kurashishga o'rgatadi, atrofdagi bo'layotgan voqoalarni tushungan holda to'g'ri sharhlashsga, o'z fikrlarida muqim turishga, noo'rin bildirilgan fikrlarga o'z vaqtida qarshilik ko'rsatishga hamda har bir fikni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligmi aniqlab olishga, shu bilan bir qatorda guruhdoshlari bilan bahslashish, ta'sir eta olish madaniyatiga ham o'rgatadi. Albatta, bahslarni natijasi ulami oldindan tayyorg'orlik darajalariga ham bog'liq bo'ladi.

Texnologiyani o'tkazish tartibi:

- bahs inayzusini tanlash va uni tasdiqlab olish;
- tarbiyaviy vazifalarni aniqlab olish;

• oldindan bahs mavzusini o'lon qilish va bahs davomida muhokama qilinadagan savollarni belgilab qo'yish;

• qo'shimcha materiallarni to'plash;

• bahsmi tashkil etish uchun boshlovehilarni tayinlash;

• bahs o'tkaziladigan joyni jibozlash;

Bahslashuv qoidalari:

• bahslashishdan oldin, avval nima demaqchi bo'lganini yaxshilab o'ylab olish;

• fikrlarini aniq ketma-ketlik bilan, mantiqiy tuzilmasini o'ylab olish;

• aniq dalil bo'la oладиган, asosli fikrlarni bayon etish;

• fikr bildirgan guruhdoshlarini fikriga qo'shilmasdan, masxaramasdan o'z fikrini isbotlashiga urinish;

• avval aytilgan fikrlarni takror-takror etavermaslik;

• bahslashish vaqtida baqirib, hayajonlanib, o'midan turib ketmasdan o'zini tuta bilish;

• bahslashish jarayonida guruhdoshlarini hurmat qilish, ularni hafa qilmaslik, shaxsiga tegadigan gaplardan tiyilishga harakat qilish lozim.

Bahs o'tkaziladigan joyni jibozlashga ham o'ziga xos talablar qo'yiladi. Joyni qanday bo'lishi bu o'qituvchi mahoratiga uning talabalar bilan hamkorligi belgisi hisoblanadi. Bahs o'tkaziladigan joyga Mutafakkir olimlarni, shoirlarni, donishmandlarni ibratlari so'zlarini ilib qo'yish ham maqsadga muvofiqdir.

Masalan:

"O'qish san'ati o'zganing xiylagina ko'magi yordamida fikr yuritish san'atidir. O'qish o'zga bilan birgalikda fikrlesh, o'zganing fikrini mulohaza qilib ko'rish, o'zimizning fikrlarimizga o'xshash va unga zid fikrlarini hayoldan o'tkazish demakdir"¹

Emil Fage

"Zehningni kengaytirma, chugurlashtir, toki nar taratuvchi o'veningar olov nuqtasiga o'xshab aqlining butun harorati va butun shoori ham bir nuqtaga jam bo'lsin"²

Klod Gelvensiy

¹ Ozning: R. Schmuckamedev. O'quv jadidiyotida interaktivseltolar va pedagogik texnologiyalari qo'liishi usuliyatlari. T. 2005. B-10-11

² Berkinbajevd. eruzali. — T. 1999 y. 192-6

³ O'g'ish axri 240-k

“Kim hunami desa, u dono bo’lur,
Nodonlar qudrat deb boylikni bilur”¹

Abdurahmon Jomiy

“Umming butun ma’nosi mavhumlikni to’htovsiz zabit etish,
tobora va hamisha ko’proq bilishga intilishdir”²

Emil Zolya

“Kimki o’rganishni uyat, or demas,
Suvdan dur topadi,
Toshdan la’l, olmos”³

Nizomiy Ganjaviy

Bahsda muhokama qiliňadigan mayzular talabalarını hayot tarziga tegishli, zamonačiv bo’lishi har doim ham gapiravermaydigan, o’z fikrini erkin bera olmaydigan talabalarga ham ijobiliy ta’sir etadi.

Talabalarını darsdan bo’sh vaqtarda va talabalar turar joylarında, ochiq tabiat qo’ynida, axborot soatlardan, tarbiyaviy soatlarda, talabalar turar joylarining “Ma’naviyat va ma’rifat” xonalarida o’tkazish mumkin bo’lgan bahslarını talabalarda ma’naviy va moddiy hayot uyg’unligi fazilatlarını takomillashtirish mayzusi bo’yicha namunasını keluramız:

- Bugungi kunda zamonačiy barkanbol shaxs qanday fazilatlar egasi bo’lishi kerak?
- Nima savob-u, nima gunoh?
- Ma’naviy va moddiy hayot uyg’unligi mezonini qanday ifodalash mumkin?
- Mol-dunyo to’plash masalasiga qanday munosabatdasiz?
- Nafsnı tiya bilishlikning qanday yo’llari mavjud?
- Bepul narsaning bahosi qancha?
- Halol, imonli shaxs bo’lish mezonlari mavjudmi?
- Qanoatlilik qanday fazilat? U insonga nima beradi?
- Axloqiy fazilatlarini o’zlashtirish omillarini bilasizmi?

Bahslarını o’tkazishda talabaldan bitta yoki ikkita boshqaruvchi tayinlanadi. Ular zimmasiga kirish so’zi bilan bahsni boshlash, bahsni olib borish va jarayonni muhokama qilish vazifasi yuklatiladi.

¹ Pechengi davlat qurumi. — T. 1999 y. 181-b

² Oshasav. 194-b.

³ Oshasav. 179-b.

"Bahslashuv" texnologiyasini muvaffaqiyati boshlovehilarga ham bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga har qanday vaziyatda o'qituvchi ularga yordam berishga tayyor turishi maqsadga muvofiq. Odatda bahslar o'qinuvchilar tomonidan muhokama etilgan yoki echilgan muammolarni umumlashtirish hamda biror kerakli tavsiyalar berish va kelgusida o'tkaziladigan bahslar mazuzusini aniqlash bilan yakunlanadi. Bahslarни muvaffaqiyati ularni o'tkazishda tayyorlangan mavzuga va beriladigan savollarga ham bog'liqdır.

Talaba-yoshlarda ma'naviy va moddiy hayot uygunligi fazilatlarini takomillashtirishda o'tkazish mumkin bo'lgan ba'zi mazuzadagi bahslarning taxminiy savollarini keltiramiz.

MAVZU: MA'NAVIV VA MODDIY HAYOT UYG'UNLIGI MEZONINI QANDAY IFODALASH MUMKIN?

Savollar:

- "Ma'naviy ehtiyoj" tushunchasi shaxsan Siz uchun minnami anglatadid?
- Sizningcha, ma'naviy ehtiyoj qanday qoudiriladi?
- Jismoniy va aqliy kamol topishda ma'naviy va moddiy hayot uygunligining bog'liqligi nimada?
- O'zlikni anglashni qanday tushunasiz?
- Ma'naviy va moddiy hayot uygunligi masalasiga oid faylasularning fikrlaridan keltira olasizmi?
- Tut bargichalik qimmatning yo'qmi,
Ipak qurtichalik himmatning yo'qmi?
Gap nima haqida boryapti? Izohlang.
- Shaxsan Siz qanday ma'naviy-axloqiy sifatlarga egasiz?
- Qo'llingizdagи mayjud mablag'i Sizning ma'naviy ehtiyojloringizni qondira oladigan qanday narsalarga sarflaysiz?
- O'qib-o'rgangan bilimlarningiz moddiy farevoalikka erisha olishingizga qay darajada yordam bera oldi?

MAVZU: MOL-DUNYO TO'PLASH MASALASIGA QANDAY MUNOSABATDASIZ?

Savollar:

- Mol-dunyoga nisbatan o'z munosabatingizni bildiring.
- Mol-dunyo to'plashga inson o'z urrimi bahshida qilishi mumkinini?
- Omonatga hiyonat qilma! degan hikmatga munosabatingiz qanday?
- "Mol-dunyo kasofati" deganda nimani tushunasiz?
- Mol-dunyo to'plash masalasida ochko'zlik bilan qo'lli ochiqlikni qanday tushunasiz?
- Ro'zg'or tebratishda mol-dunyodan foydalananish yo'llari bor deb o'ylaysizmi?

MAVZU: AXLOQIY FAZILATLARNING EGALLASH OMILLARINI BILASTIZMI?

Savollar:

- Axloqiy fazilatlarni egallashda ma'naviy tarbiyaning o'mini qanday baholaysiz?
- Axloq masalasida inson yashayotgan, o'qiyotgan jamoaming ta'siri bo'lishi mumkinmi? Bo'lsa qanday?
- Axloqning "yaxshi", "yomon" turlari. Buni siz qanday tushunasiz?
- Kimlarni axloqli deb aytsish mumkin?
- Barcha insonlarni axloqli deb aytsa bo'ladiimi?
- Siz o'zingizni axloqli deya olasizmi?

"QARAMA-QARSHI MUNOSABAT" METODI

Texnologiyaning maqsadi. Bu mashq'ulot talabalani o'zlash-tirgan bilimlarini tahlil va analiz-sintez qilish asosida hamda ikkinchi darajali ma'lumotlar sifatida guruhlarga ajratish imkonini beradi. Shu bilan birga ularda berilgan mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, mavzuni umumiy mohiyatini chuqur anglab olishlariga yo'naltirilgan.

Ushbu metod avval talaba bilan yakka ishlash so'ogra kichik guruhda ishlash orqali tashkil etiladi. Mashg'ulotda talabalarga yakka tartibda va guruhlarda ishtashlari uchun oldindan tayyorlab qo'yilgan tarqatmalar tarqatiladi. Bunda ular avval yakka tartib so'ogra, kichik guruhlarda va jamoada ishlaydilar. «Qarama-qarshi munosabat» texnologiyasidan bo'sim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanisa yanada samaraliroq bo'ladi.

Texnologiyaning qo'llanishi: ma'ruba, laboratoriya, seminar va talabalmi bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etishda foydalanish mumkin.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar: A-4 formatdagi qo'ozlar va markerlar.

Mashg'ulni o'tkazish tartibi:

1. Mayzuni umumiy mazmuni yodga olinadi va mashg'ulot ketma-ketligi talabalarga tushuntiriladi;
2. Mayzuni mohiyatini yorituvchi tushunchalar aniqlanadi;
3. Ular muayyan ketma-ketlikda qayd etiladi;
4. Tushunchalar shaxsiy yondashuv asosida mahim bo'lgan va muhim bo'lmagan tushunchalar tarzida guruhananadi;
5. Jadval tuzilib, uning 1-ustuniga muhim bo'lgan 2-ustuniga muhim bo'lmagan tushunchalar yoziladi;
6. Avval yakka tartibda so'ogra kichik guruhlarda vazifalar muhokama qilinadi;
7. Kichik guruhlar o'z ishlarni o'qib yeshittiradilar va guruh fikr-mulohazalarini jamoada muhokama etiladi;
8. Jamoaning umumiy fikriga ko'ra yakuniy xulosani ifoda etuvchi jadval yaratiladi.

Izoh: har bir o'qituvchi ushbu texnologyalan o'z fanning mazmuni mohiyatidan kelib chiqib foydalantishi va maysadim, shart-sharoitni hisobga olgan holda keragicha o'zgartirishi mumkin

Talaba-yoshlarda ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi fazillarini takomillashtirishda, ularni o'zlashtirishda ongli munosabatni tarbiyalash va samaradorligini oshirishda qo'llash mumkin bo'lgan quyidagi jadvalni c'tiboringizga havola etamiz.

Yakka tartibda ishlarni tashkil etishda foydalanimish uchun:

Mavzuning ahamiyati

Fazilotlar		Illatlar	
1	Oqillik	1	Bema'nilik
2	Olijanoblik	2	Manfaatparastlik
3	Baq'rikenglik	3	Baq'riqarotlik
4	Hatalik	4	Nopoklik
5	Mehnatsevarlik	5	Yalqovlik
6	Ijodkorlik	6	Ig'yogartlik
7	Yaratuvchanlik	7	Buzg'unchilik
8	Olyhimmatlilik	8	Bekimmatlilik
9	Saxiylik	9	Nokaslik
10	Saxovatpeshalik	10	Xudbinlik
11	Kamtarlik	11	Kibrtilik
12	Ochiqko'ngillik	12	Menmanlik
13	Adolatparvarlik	13	Adelatsizlik
14	Mehriboolik	14	Shafqatsizlik
15	Tejamikorlik	15	Isrofgarchilik

Guruhiarda ishlarni tashkil etish uchun:

Mavzuning ahamiyati	
Ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi fazilatlarni jamiatuting ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotidagi o'rni.	Insonni ma'naviy axloqis tarbiyalangan barkamol shaxs bo'lib rivojtaniishiiga illatlarning solibiy ta'siri.
1	1
2	2
3	3
4	4

"MULOQOT" TEKNOLOGIYASI

Teknologiyaning tavsifnomasi. Ushbu teknologiya talabalarning ta'lim jarayonida faoliyini oshirib, mustaqil fikr-mulohaza yuritishlarini ta'minlashga va ularda bals-munozara yuritish madaniyatim rivojlanishiga asoslanadi. Muloqot texnologiyasi asosan kichik guruhlarga ajratilgan xolda olib boriladi.

Teknologiyaning maqsadi. Tanlangan mavzuga talabalarini mosnosabatlari aniqlash, guruhlarda ishlash orqali biri-birlariga nisbatan hunnat hissini tarbiyalash, o'zaro hamkorlik munosabatlarni moslah-kamlash, o'zaro erkin holda muloqatga kirisha olish malakalarini rivojantirish.

Teknologiyani qo'llash. Fakultativ, laboratoriya, amaliy mashg'ulotlarda va talabalar bo'sh vaqtlarini tashkil etishda hamda tarbiyaviy soatlarda qo'llash mumkin. Muloqot texnologiyasini tabiat qo'yinda o'tkazish ham ijobiyl natija beradi.

Mashg'ulotda foydalilaniladigan vositalar. Vatman qog'ozlari, markerlar.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- o'qituvchi talabalani mashg'ulot tartib qoidalari bilan tanishiradi va mashg'ulotni bosqichma-bosqich o'tkazishini tushuntiradi;
- o'qituvchi ko'rsatmasi bo'yicha talabalar kichik guruhlarga bo'lhinadilar;
- har bir guruh jamoasi o'zları tanlangan mavzu yuzasida tay-yorgarlik ko'ra boshlaydilar masalan, ko'r gazinak materiallar, rivoyat, olim va donishmandlarning fikrlari va boshqalar bo'lishi mumkin;
- o'qituvebining ko'rsatmasiga binoan guruhlar o'rtaida mavzu so'nalishlari bu'yicha muloqot boshlanadi;
- muloqot davomida o'qituvchi guruhlari tomonidan bildirilgan fikrlarni maqsadli yo'naltirib boradi va kichik guruhlari tomonidan yoritilgan asosiy mavzularga o'z mulohazalarini bildiradi va muloqotni yakunlaydi

Teknologiyani o'tkazish bosqichlari:

I-bosqich. O'qituvchi muloqotning mavzusini aniqlashidan boshlaydi. Masalan, talabalarda ma'naviy va moddiy hayot uyg'umligi fazillatlarini tarkib topishiga olib keladigan taxminiy mavzularni keltiramiz. "Ma'naviy va moddiy hayot uyg'umligi — inson umarining mezonini bo'la oladimi yoki yo'q?", "Mol-dunyo to'pleshga ko'ngil bog'lash nodonlikmi yoki fazilatmi?", "Nafs insonnинг moddiy o'zligini yoki ma'

naviy?" "Moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligiga erishishda intellekt roh o'yaydimi?" Taktif etilgan mavzular ichidan eng maqbulini aniqlab oladi. Talabalarni guruhlarga ajratib ularni tayyorgarlik ko'rishlari uchun shart-shareit va imkoniyat yaratadi. Sharoitdan kelib chiqib aniq vaqt ham belgilanadi.

2-bosqich. Har bir guruh a'zolari mavzular mohiyatidan kelib chiqib kerakli materiallarni tayyorlaydilar. Masalan, videofilm, rasmi, donishmaandlar o'gitlari, rivoyatlar, maqolalar bo'lishi mumkin. Shundan so'ng kichik huruhlardan bittadan vakil tayyorlanadi qolganlarga esa qo'shimcha qilish imkoniyati beriladi.

3-bosqich. Guruhlar himoya tayyor bo'lgach, o'qituvchi navbat bilan guruhlar taqdimotiui ta'minlaydi. Tayyorlangan vakil guruh nomidan so'zga chiqib, mavzu bo'yicha tayyorlangan materiallarni namoyish etadi. Guruh vakilning so'zi tugagach, jamoaning boshqa a'zolari o'z fikr-mulohazalarini qo'shimcha qilishlari mumkin bo'ladi.

4-bosqich. Mashg'ulotning 3-bosqichidagi kabi bu bosqichda ham o'qituvchi navbatdagi guruh vakiliga himoya uchun so'z beradi.

5- bosqich Bu bosqichda kichik guruhlar bir-birlariga o'zlarini qiziqitrgan savollar berishlari uchun imkoniyat yaratiladi. Savollarga javob berishda har bir guruh a'zosi o'z fikrlariga boshqalari ham ishontirishga va fikrlorini isbotlashga xarakat qilishlari lozim bo'ladi. Bu holat o'qituvchi tomonidan kuzatib boriladi va jarayon samimiy tarzda boshqarishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

6- bosqich. O'qituvchi har ikkala tomonning savollarga javobleri, izohlari va fikr-mulohazalar niyoyasiga yetgach, talabalar avtgan fikrlar o'qituvchi tomenidan umumlashtiriladi va bu masala yuzasidan mulohazalarini bayon etadi. Lozim bo'lsa berilgan savollarga izoh berib o'tadi. Mashg'ulot niyoyasida har ikkala guruliga ishtirokleri uchun minnatdorchilik bildirib mashg'ulotga yakun yasaydi.

"BUMERANG" TEXNOLOGIYASI

Texnologiyaning maqsadi. Talabalarni tarqatilgan tarqatma materiallaridan foydalana olish va berilgan mavzu yuzasidan bahs-munozaraga kirisha olish malakasini rivojlanish.

Texnologiyani o'tkazish bosqichlari:

- talabalar 4-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratiladi va har bir guruh a'zosiga mavzu yuzasidan tarqatmalar tarqatiladi;

- guruhlarga berilgan matn yakka tartibda alohida o'tganishlari, eslab qolishlar), matnni o'zlashtirib olishga harakat qilishlari joyini bo'ladi Buning uchun o'qituvchi tomonidan 15 daqiqa vatq belgilanadi;
- o'qituvchi talabalarga tariib raqamlari yozilgan kichik qog'ozlardan bittadan tortib olishlarini taklif etadi (guruhdagi 5 kishi bo'lsa, qog'ozdagi raqamlar 1,2,3,4,5 etib tayyorlanadi) Guruhlardagi barcha tinglovchilar raqamlar yozilgan qog'ozdan olishlari kerak Nechta guruh bo'lsa, shuncha guruh a'zolari soniga qarab raqamlar yozilgan qog'ozlar tayyoranadi;
- raqamlar bo'yicha talabalardan yangi guruhlarni tuziladi, ya'ni 1 raqamini olganlar 1-stolga, 2 raqamini olganlar 2-stolga shu tartibda kelib o'tiradilar va her bir guruh a'zosi o'zidari bilan o'rgangan matnlarini oladilar;
- raqamlar bo'yicha yangi guruhlarni tuzilganda har bir guruhdagi avvalgi guruhlardan bittadan vakillar to'planadilar natijada umumiy mavzu bo'yicha 4 tinglovchi va 4 xil matn to'planadi;
- har bir a'zo o'zi avval o'rgangan materialni boshqalar e'tiboriga havola etadi, tushuntiradi, izchilab beradi. Ularning o'zlashtirish qobiliyatlarini tekshiradi. Bu vazifa talabadan o'qituvchi vazifasini talab etadi;
- guruh a'zolarini navbatma-navbat tushuntirayotgan, gapirayotgan matnlarini eshitadi, tahlil qiladi, yodda saqlab qolishga harakat qiladi. Bu vazifa endi tinglovchi bo'lishni talab etadi;
- o'qituvchi tomonidan vazifani bajarish uchun matn hajmini hisobga olgan xolda vagt belgilanadi;
- guruhdagi ishtrokkchilar mata bilan tanishib olganlaridan so'ng, talabalarga guruh a'zolari matn maznunini yoritish uchun hizmat qiledigan savollarni bir-birlariga berish orgali matnini yanada mustahkamlanishi o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi,
- berilgan vazifa bajarilgach o'qituvchi guruh a'zolarini qaytadan avvalgi joylarga borib o'tirishlarini taklif etadi;
- o'qituvchi talabalarga xohlagan savoli bilan murojaat etadi va bergen savollariga javoblar oladi. Shundan so'ng o'qituvchi guruh a'zolariiga matnidan kelib chiqqan holda savollar tuzib ularga guruhlarga berishlarini tushuntiradi.
- analoga oshirilayotgan xatti-harakatlari diqqat bilan kuzatib boriladi va o'qituvchi tomonidan baholanadi.

Babolash tartibi:

Berilgan savollarga to'liq javob bo'ssa-3 ball, qo'shimcha qilinsa-2 ball, o'rgan joyidan fikr bildirsa-1ball, javob bermasa-0 ball bilan belgilanadi.

Misol tariqasida talaba-yoshiarda ma'nnaviy va moddiy hayot oyg'unchagi fazdallarini takomillashirishda foydalanish mumkin bo'lgan taxminiy matnini kelurish mumkin.

1-guruh: AXLOQIY FAZILATLAR

AXLOQ (arabcha, xulqning ko'plik shakfidir) - ma'nnaviy hayot hodisasi, ijtimoiy ong shakkidan biri, ma'nnaviyat sohasiga oid inshuncha. Kishiarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurishi-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdag'i o'zaro muloqat, shuningdek, jamiyatga bo'lgan muloqotlarini tartibga solib turadigan barcharor muayyan me'yor va qoldalar yig'indisi. "Axloq. - deb ta'kidlaydi Prezident Islom Karimov,-bu avvalo insos va adolat tuyg'usi, inwon, balollik degani. Qadimgi ajoddalarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuuni, zantonaviy tilda aysak, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Kishi qalbida haromdan hazar, noplilikka, adolatsizlikka nisbatan murrosasiz isyon bo'lishi kerak. Shunday odamning lafzini saqlaydi, bironning haqiga xiyonat qilmaydi, sadoqatli bo'ladi, vatani, xalq uchun jonini fido etishga ham o'zmi ayamaydi".¹

Farobiyning yozishchicha, adolatlilik jamiyat qurishga qodir bo'lgan odamlarning axloqiy sifatlari quyidagilardan iborat:

1. Te'ret muchasi sog lom bo'lib, o'ziga yuklangan vazifalarni bajarishda biora a'zosidagi nuqson halal bo'tmasligi lozim, aksincha, u sog lomligi tusayli bu vazifalarni oson bajarishi lozim.

2. Shahar hokimi tabiatan nozik farosadli bo'lib, sub-batdoshining so'zlarini, fikrlarini tez tushunib, tex ilg'ab olishi, sha sohada amumiy ahvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi zarur.

3. U anglagan, ko'rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarni xotirasida to'la-to'lis saqlab qolishi, barcha tavsiyotlarni unutmastigi zarur.

4. U zehni o'tkir, zukko bo'lib, har qanday narsaning bilinmamas alomatlarini va u alomatlari nimani anglatishini tez bilib, sezib olishi zarur.

¹ Ma'nnaviyat - o'sayti hundurlar ishlashiga. T. Gafur G'ulom nomidagi nashriyot matbeasi yozu, 2010, 10-46-20.

5. U fikrini ravshan tushuntira olish maqsadida, chiroyli so'zlar bilan ifodaley olishi zarur.

6. U (ustozlardan) ta'lim olishga, bilim ma'nifatga havasli bo'lishi, o'qish, o'raganish jarayonida sira charchamaydigan, buning mashhaqqatidan qochmay dagan bo'lishi zarur.

7. U haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevadigan, yolg'omni va yolg'onchilarni yomon ko'radigan bo'lishi zarur.

8. U o'z qadrini biluvchi va nomus-oriyatli odam bo'lishi, past-kashliklardan yuqori turuvchi, to'g'ma olyibimmat bo'lishi, ulug'i olyi ishlarga intilishi zarur.

9. Bu dunyo mollariga dinor va dirhamlarga qiziqmaydigan (moldunyo ketidan quymaydigan) bo'lishi zarur.

10. Tabiatan adolatparvar bo'tlib, odil odamlarni sevadigan, istibdod va jabr-zulmni, mustabid va zolimlarni yomon ko'ruvchi, o'z odamlariga ham begonalarga ham haqiqat qiluvchi, barchani adolatga chaqiruvchi, nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi, barchaga yaxshilikni va o'zi suyg'an go'zalliklarni ravo ko'ruvchi bo'lishi zarur. O'zi haq ishi oldida o'jarlik qilmay, odil isle tutgani holda har qanday haq-sizlik va razotatlarga murosasiz bo'lishi zarur.

11. O'zi zarur deb hisoblagan chora-tadbirlarni amalgalashirishda qat'iyatli, sabotti, jor'atli, yasur bo'lishi, qo'rqaqlik va hadiksirashlarga yo'l qo'ymasligi zarur.

(Furobiy:
Fazil odamlar shahri)

Sulton har narsada adolatposha bo'lsin, qoshida insosli, adolati vazirlarni saqlasin, toki podsho zulm qilgudek bo'lsa, odil vazir uning chorasi ni topsin. Agarda vazir zolim bo'lsa, ko'p vaqt o'imay sultanat uyi qulaydi.

Qaysi mammlakatni zabit elgan yoki qo'shib olgan bo'lsani, o'sha eming obro'-e tiborli kishilarini ariz tutdim; Sayiddari, ulamolari, fuzalo va masboixiga ta'zim baho keltirdim va hurmatladim, ularga soyurg'ol vazifalar berib, maoshlarini befgiladim; o'sha yurtlarning ulug'larni og'a-inilarinidek, yoshlari va bolalarini bo'lsa, o'z farzandlariunde kordim.

(Temur tuzuklari)

Axloq inson ma'naviyatini shakllanishining birinchi asosidir. Insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yoniorlikdan qaytaruvchi bir ilm

bor, bu – axloqdir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligi, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar bilan bayon qiladurgan kitob axloq deb atadadi.

Axloq ilmini o'qib – bilib amal qilgan kishilar o'zining kim ekanini, er yuzida nima ish qilmoq uchun yurganini bilar. Bir kishi o'zidan xabardor bo'lmasa ilmui, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qiumatini bilmas. O'z ayzbini bilib, iqror qilib tuzatniakka sa'y va qo'shish qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidir.

*(Abdulla Avloniy.
Turkiy guliston yohud axloq)*

Iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy munosabatlari orqali bir-biri bilan bog'langan kishilar o'zaro muayyan axloq normalariga asoslanib muomala qiladilar. Bir shaxs uchungacha xos bo'lgan axloq bo'lmaydi. Axloqis fazilatlar asosan ko'pchilik o'tasidagi munosabatlarda namoyon bo'ladi. Axloq normalari uzoq tarixiy tajriba asosida shakllanib, kishilar o'tasidagi munosabatlarni mushtaraklashtirib turadi.

Axloq bobida tubanlashish oson, lekin yuksatish qiyin. Axloqiy buhronga qarshi kurashishdan ko'ra uning oldini olish oson. Qayta oyoqqa turish qyinligini anglagan kishi yiqilmaslikka harakat qiladi.

*(E. Yusupov.
Inson kamolotining ma'naviy asoslari)*

2-guruh: SABR TO'G'RISIDA

SABR (arab. achchiq, chidam, bardosh) – inson ma'naviyatining tarkibiy qismi bo'lib, oshiqmasdan kutish yoki o'zini tiya olish, toqat, chidam-bardosh, iroda va qatoat qilish ma'nosini auglatadi. Sabr kishini turli-tuman ziddiyatli voqealarga bardosh qila olishini ham ifodalaydi. Sabr – yuksak ma'naviyat, aql va madaniyat belgisi, boshqalarning fikri va e'tiqodiga surʼatli surʼatli hisoblanadi. Murakkab ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy nuquanimolarga nisbatan bog'rikenglik bilan munosabat bildirish va xatti-harakatdag'i xolislik shaxsnинг sabri, ma'naviyatu yuksakligidan dalolat beradi. U uzoq yillar mobaynida ota, jamoa, ijthmoiy sharoit, mavjud an'analar ta'sirida shakllanadi. Sabr istalgan dorajadagi rahbar uchun savqulotda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zero, msonning turli vaziyatdagagi ham ijobjiy ham salbiy jihatlarini farqlash uquvi, adolatlilik baho berish joyoqati janroda sog'lem ijtimoiy-rubiy muhimni to'minlaydi. Sabr sagat ayrim shaxsga xos xususiyat sifatida emas, balki ayrim kishilar, g'oyalar, vaziyatlarga munosabatida namoyon bo'tadigan janroaga xos xususiyat sifatida ham qaraladi. Yana sabr chidamli bo'lish, og'ir holatlar yuz berganda, inson ularga bardosh qilib, o'zini yo'qotmasligi, nojo'ya so'zlardan, o'rinsiz harakatlardan o'zini tuyishdir¹.

(Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati)

Sabr achiqiddir-ammo foyda beruvchi, qatuqdir, ammo zararni da'etuvchi.

Qaysi bir tilagiga erishohnagan sabr etniga qo'l urdi-yu, tilagiga erisholmadi? Qaysi bir giristor sabrning bag'riga ko'ngil qo'yidi-yu, kushodlik topinadi? Sabr shodliklar kalitidir.

U o'reoqdir-suhbari zeriktirarli, ammo maqsadga olib boruvchi; ulsafdir-umidi uzun, amma oxiri istakka elitavchi;

Acheliq so'zli nasicatchiday tabiat undan olimadi, lekin zontinida maqsad hofis bo'ladi. Badxo'r dori beruvchi tabibday kasal undan qiyonaladi, ammo so'ngida sohliq yuz beradi.

Oshiq kishilar bu so'zni aytishdan cho'chiydilar, lekin natijaga erishishga umid tug'diradi.

Uning qiyofasida Jon bulbuliga na jumlilik, na nola va na xonish foyda beradi. Uning majlisida ruh to'sisiga na sukut, na faryod va na fig'on naf yetkazadi. Sahrosida tinchlik ham bir-u, begarortlik ham bir. Dashtida to'xtash ham biru, chopishi ham bir. Ayriliqdan kuyganlarga o'lishdan g'um yo'q. Ishitiyoq hosil qilganlarga kuyishdan alam yo'q.

Sabr orqali ko'p bog'langan ish ochilar, ishda oshiqqa ko'p toyilar, ko'p toy ilgan ko'p yiqlilar.

*(Alisher Navoiy.
Mahhab ul qulub)*

Sabr deb boshimizga kelgan balo va qazolarga chidamli bo'lmakni aytilar. Har bir ishda sabr va sovuqqentik ilo harakat qilmak lozimdir. Chunki boshimizga keladurg'on balo va qazo, zahmat va mashaqqatlarning barchasi janobi haqning irodasi ilo o'lqidig'i uchun

¹ Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati - T.: O'stur O'sulxon textidagi nashriyot-nashriyoti, 2010.

bukarga sabisizlik qilgan kishilar ejr va savobdin quruq qolurlat. Iasonlar uchun buyuk bir faziloldurki, janobi haq sobitarni suyer.

Iason har bir ishni sabr va matonat ilo yoritsa, maqsadiga tinch va rohatda borub yetar. Hawisha saodatda yashar.

Nassini sabr ilo rom qilgan kishi har ishda oshiqmay, oxista harakat qilin. Nassini halokatdan, g'ururdan saqlar.

*(Abdulla Avloniy.
Turkiy galiston yohud axloq)*

3-guruh: INSONPARVARLIK

INSONPARVARLIK – insounning yuksak ijtimoiy mavqeini belgilab, bu boradagi diniy va duniyoviy, g'oyaviy – maskureviy, milliy va umumbashariy qarashlar, mezoslar, qadriyatlar va an'analar sistemasi, faoliyat darajasini asoslab beradigan ta'llimotlar, umuman insoniylikka asoslangan faoliyat va xatti-harakatlarni anglatadigan tushunchcha. Dastavval insonparvarlik tushunchasi Sharqda paydo bo'lib. "Avesto" dagi "Ezgu sifr, ezgu so'z, ezgu amal" g'oyasi bu sifrn tasdiqlaydi. Jahon dinlарining barchasida insonparvarlik g'oyalari ustividir. Ayniqsa, muqaddas islam dinining asosi va mohiyati insonparvarlikdan iborat. Chunouchi, hadisi sharifda "Odamlarga rahmli bo'linagan kishiga Allohaing ham rahmi kelmaydi" degan so'zlar orqali insonparvarlikka da'vat etiladi⁷

(Ma'nayiyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati)

Insonparvarlik, gumanizm-odanalarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurnai qilish, insonning moddiy farovontigini yuksaltirish va kishilarda yuksak ma'nayiv fazilatlarni rivojlantirishga g'amxo'rlik qilish g'evalari bilan sug'orilgan dunyoqarash. Insonparvarlik insonning tashqi va ichki go'zalligi uz g'unligidir. Insonparvarlik insonni qadr-qiminatini himoya etish va erkin huquqini takab qilishdir. Inson nafaqat tabiiy ofat, ijtimoiy institutlar tazyiqidan, haito o'z havo'i nafsi, tanazzulga olib boruvchi mayllardan himoya etilishi uchun insonparvarlik

⁷ Ma'nayiyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. - T. G'atur Gi'oloz nomenclagi rasmiyot shahariga yodliy qayta. 2010

taqazo ettladi. U inson ma'naviyatida muhitning tarbiyaviy ta'siri va ilm-ma'rifat orqali joy oлади.

(*O'zbek tilining izohli lug'ati 2-tom*)

Insonparvarlik odamzotning qadri, uning erkinligi, qobiliyatları har tomonlarda namoyon bo'lishi uchun kurashishi, insonning baxtsaodati, teng huquqligi, adolatlilik hayotni ta'min etishga intilish, insoniyatning barcha tamoyllari yuzaga chiqishiga shart-sharoitlar yaratish ma'nusini anglatadi. Insonparvarlik o'zbek xalqi milliy rubiyatining ojrahmas fazilałaridir.

(*Zokirov M. Ma'rifiy saboglar*)

Insonparvarlik insonning sharifi, vijdoni va imonining mabsuli hisoblanadi. Insonparvarlik xayrixohlik, g'amxo'riflik, moddiy-ma'naviy madadga intilish tuyg'usi, imon, vijdon doirasida mehr-muravvat ko'tsatish ehtiyojini qondirish natijasida vujudga keladi.

Insonparvarlik mazmunan boy va xulq edob qoidalarni o'zida mujassamlashtiradi. Ularni quy'idagicha sharxlash imkonin: ya'ni, insonparvarlik qadriyati neginzida mehr-shafqat, muravvat va oqibat, saxiylik, saxovat, diyonat, qanoat, sozdillik, rostgo'ylik, hamfikrlilik, hamkorlik, fahm-faresatilik, ziyraklik, hojatbarorlik kabi axloqiy-ma'naviy xususiyatlar o'z ifodasini topadi.

(*O. Musurmanova.
Ma'naviy qadriyalar va yoshlar tarbiyası*)

4-guruh: QANOATLILIK

QANOAT (arabcha so'z bo'lib, manmullik; boriga shukr qilish; kamisuqumlik) - o'ziga yoki boriga ko'nish tamoiliga asoslangan ma'naviy tuyg'u, bori bilan kifoyalanish, nafsi liyiqlik bilan ko'p narsaga, ortiqchalikka intimaslik, qoniqish bissi. Qanoat bu yeb-ichish va kiyinishda imkon va zarurat darajasidan ortig'ini talab qilmaslikdir. Qanoat borlik-yo'qlikka ko'nish faqirlikni kambag'allikni or deb bilmaslik, oz narsa bilan tirikchilik o'tkazishni anglatadi. Qanoatli bo'lish uchun kishida avvalo, sabr tuyg'usi mustahkam bo'lishi kerak. Ayni paytda sabre uchun qanoat lozim. Qanoatlilik-osudalik, xotirjamlik tuyg'usi bo'lib, kishi nafsinu har qanday tamadan ehtiyyot qilishga harakat qiladi. Qanoatl kishi sabrli, chidamli bo'lishi bilan birga hasad, hirs, xorlik kabi illatlardan yiroq bo'ladi. Qanoat bu — kishining ma'naviy boyligi bo'lib, insonni poklikka, chorlaydi, multojlikdan

uzoqda bo'lishini ta'minlaydi. Bunday kishilarni tama tuzoqlari;
tushirib bo'lmaydi. Qanoatli kishining ruhi ozod, erkin bo'ladi. Ha
qanday muhitda ham ruhi hurlikda bo'lib, shkast topmaydi!

*(Ma'naviyat
asosiy tushunchalar izohli lug'ati)*

"Qanoat-bir chashmadirki, olgan bilan uning suvi qurimaydi; u bi
xazinadirki, undagi boylik kamaymeydi; u bir ekinzordirki, urug'i izza
va shafqat hosili beradi; u bir daraxtdirki, unda qaram bo'lmaslik va
hurmat mevasi bordir.

Qanoat bir qo'rg'onki, unga kirsang, nafsning g'alvasidan quti
lasan. Qanoat bir cho'qqiki, unga chiqsang, do'st-dashimanga muh
tojlikdan xolos bo'lsan. Qanoatdan ko'ngilga ravshanlik foydasi etar va
ko'z undan yorug'lik natijasi hosil etar.

Tirikchilik uyi agarchi tordir, amma har qancha mubolag'a qilins:
e'tru bordit: qanoat qo'rg'ondir-u yerga kirsang nafs yomonligidan quti
larsan, tog'likdir-u yerdan chiqsang dushmani va do'stga qaramlikda
xolos bo'lsan, tubantashishdir-natijasi yuksaklik; zoriqishlikdir-foy
dasi ehtiyojsizlik, urug'ining mevasi farovonlik, daraxtdir-samarasi tor
tinchoqlik; yo'ldir-qatlq, amma sevintiruvchi.

"Qanoat deb haq atrofidan ehson bo'lgan ahvolga erishdug'ini
ne'mat va molga shukr, boshimizga kelgan faqr, misibat, falokatlarga
chidab, sabr qilmoqni avtihir. Qanoat hasad, ta'ma, hirs, horlik kabi
illatlarning davosi, nassimi ning g'inosidur.

Qanoat bir hazinadirki, naqdinasи kundan kun ortar. Bu hazinaga
ega bo'lgan kishilar umrlarini shavq va rohatda kechirurlar, buning ila
barobar qanoatsizlikdan paydo bo'ladurgan hasad degan joanning eng
zo'r dushmanidan qatulurlar. Chin insonlar kishining molina, mulkina,
saodatina, maishatuna hasad qilmas, qanoatdan ayrilmas, umrini rohatda
otkarur. Inson har bir ishga kuchi eiguncha cholishmoq janobi haq
taqdirdagi narsasidan nimanri bersa shunga qanoat qilmoq lozindir.

Olamda qanoat kabi dilni poklaydurgan narsa yo'qdir. "Dunyoda
sa'y-jadali ilo maishat o'tkazgan qanoat egasi hech kimig'a muhtoj
bo'lmasan zo'r boylar kabi rohatda saodaida yashar", - dermishlar"

*(Abdulla Avloniy,
Turkiy guliston yohud axloq)*

Qanoat zaturiy axloqiy kategoriya bo'lib, u halollik, taqvo, karam, saxovat tushunchalari bilan izohlanadi.

Qanoatga da'vat etish, kishilarni kurashdan chetlashish; mulkdorlarning moliga tajovuz qilmaslik, "bergani bilan shukr qilish" taqdirga tan berishga undash demakdir.

Qanoat kishini qudratli va bardam qilib tarbiyalaydi, ruhingiz tetik, qalbingiz butun bo'ladi. Qanoat qilgan gado-podsho, tamagir shoh esa-gado.

Qanoat eng oliv himmat.

Qanoat erkin, insoniy huquqni, izzat-ikromni saqlashning to'g'ri yo'llidir.

Qanoatning dushmani biri-tama, ikkinchisi-hirsdir. Ikkalasi bir-lashsa odamni razolat va lalmu lainlik botqog'iga tortadi.

(*Muslihiddin Muhiddinov,
Komil inson-adabiyot ideali*)

Qanoatlari odam birovga qaram bo'lmasdan, o'z erkini, qadr-qimmatini nafs tuzog'iga tushirintay yashay oladi.

Qanoat eng oliv himmatdir.

Qanoatsizlik odam bolasidagi bir xastalikdir. U turmusining ko'p mashaqqatlariga duchor qiladi.

(*Abdulhay Abdurahmonov.
Saodatga eltuvchi bilim*)

Ko'rinish turibdiki har bir o'qituvchining asosiy maqsadi bu – ta'-lim-tarbiya jarayonida aniq maqsaddan kafolatlangan natijaga erishishdir. Mana shu maqsadimizga erishishimizda o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan texnologiyalardan biri bu – o'yindli texnologiyalar hisoblanadi.

"CHARXPALAK" TEXNOLOGIYASI

Texnologiyaning maqsadi: mashg'ulot jarayonida mantiqan fikr-muohaza yuritish, o'z fikrini erkin bayon eta olish, berilgan fikrlardan eng muhimlarini tanlab olish, boshqalar fikrini hurnat qilish va diqqat bilan tinglash, o'z-o'zini baholash.

Mashg'ulotni o'tkazish ketma-ketligi:

- talabalarni mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtirish;
- guruhlarga ajratish;
- oldindan tayyorlangan tarqatma materiallarni guruh a'zolariga tarqatish;
- berilgan topshiriq yakka tarubda bajariladi;
- har bir guruh a'zosiga tarqatma materialning bir burchagiga biron-bir belgi qo'yish taklif etiladi;
- tarqatma materialdagи topshiriqlar nihoyasiga etgach boshqa guruhlarga "charxpalak aylamasi" yo'nalishi bo'yicha almashitiriladi;
- yangi guruh a'zolari tomonidan materiallar o'rganiladi va unga o'zgartirishlar kiritiladi;
- bu holat guruh a'zolarining soniga qarab amalga oshiriladi;
- tarqatma materiallarni oxirgi almashishidan so'ng har bir guruh a'zosi qo'ygan belgisi asosida o'z materialini tanlab oladilar;
- qo'yilgan belgilarni tahlil etish lozim bolsa, kerakli o'zgartirishni kiritishlari mumkin bo'ladi;
- o'qituvchi tarqatma materiallarni yig'ib oladi va baholarni guruh jurnaliga ko'chirib qo'yadi.

"Charxpalak" texnologiyasidan foydalangan holda talabalarda ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi fazilatlarni takomillashtirish uchun quyidagicha vazifa berish mumkin.

	Ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi fazilatlari	Moddiy hayot uyg'unligi	Ma'naviy hayot uyg'unligi
1	Pul, mablag'i, ko'chinas mulk	+	
2	Bilim, ma'lumotiga egalik, ma'naviy-rubiy yetuklik		+
3	Oziq-ovqatlarga bo'lgan ehtiyoj, turar-joyga bo'lgan ehtiyoj, kiyim-kechakka bo'lgan ehtiyoj, ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan ehtiyoj	+	
4	Mehnat qilish, bilim olish, kasbiy va hayotiy tajribani oshirish	+	
5	Aholining talab va chilyoqlarini o'rganish, talab va taklif qomu-		

	niyatiga ko'ra vaziyati to'g'ri baholash, ishlab chiqarishga malakali kadrlarni jalg qilish	+
6	Bilim olishga, kasbiy malakani oshirishga, san'at asarlaridan ma'naviy ozuqa olishga, shaxslararo muloqotga nisbatan ehtiyojlar	+
7	Saxovatlilik	+
8	Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, biznes-rejaga ega bo'lish	
9	Mablag', foyda, ishlab chiqarish	+
10	Omonatga xiyonat qilmashlik	+
11	Kundalik ehtiyojlarni qondirish	+
12	Tadbirkorlik faoliyati, biznes-rejaga ega bo'lish, hisob-kitob	+
13	O'zgalarga beinunat yordam berish, qo'llab - quvvatlash	+
14	Tejankorlik	+
15	Sabr – bardoshlilik	+
16	Uy-joyga, mashinaga, ko'chmas mulkka egalik	+
17	Axloq	+
18	Nafs	+
19	Kitob, gazeta, jurnal o'qish, san'at asarlaridan bahramand bo'lish, savohat qilish, ko'ngilli dam olish	+
20	Mehnat qilish	+

Qo'llash mumkin bo'lgan yana bir variant

	Ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi fazilatları	Haleflik	Saxiylik	Qanoatlilik
1	Omonatga hiyonat qilmashlik	+		
2	Hech kimdan narsasini, yaxshili-gini ayamaslik		+	

3	Hech kunga muxtoj qilib qo'smaydi, naf's tuzog'iga tushermaydigan fazilat bu-	+
4	Qo'li ochiqlik	+
5	Insosining ichki va tasbaqi dunyosining birligi	+
6	Molini muhtojlardan ayamaslik	+
7	...insoniyat bog'ining bosildor daraxti	+
8	Mehnat bilan tirikchilik qilish	+
9	Xayr - oxson	+
10	Mannunlik, boriga shakr qilishlik	+
11	Nafs ko'ngilni yomon ishlarga boslashdan o'zini tryishlik	+
12	O'ziga yoki boriga ko'nish	+
13	Osudalik, xotirjamilik	+
14	...ma'naviy etuklikning, komil insoniylik aloinatidir	+
15	Qo'lg'a tushgan birovning molimi egasiga qaytarib berish	+
16	...borlik yo'qlikka ko'nish	+
17	Kishining ma'naviy boyligi	+
18	Mulkdorlarning moliga tajovuz gilmaslik	+
19	Ruxsat etilgan	+
20	...topilmas donishmand,...- tugamas hazina	+

20-17ta to'g'ri javob - "a'llo"

18-15ta to'g'ri javob - "yaxshi"

14-11ta to'g'ri javob - "qoniqarli"

IV. TALABA-YOSHLARDA MA'NAVIIY VA MODDIY HAYOT UYG'UNLIGI FAZILATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA O'YINLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

“O yintarsiz to’lagonli aqly rivoytarish yo’q va bo’lishi ham munkin emas. O yin-bit bolening ma’noviy diniyosiga tasavvurlar, tushuncholarining jontantiruvchi ogimi qaydaligem ulkan yorqin oyda. O yin-bilishga intilish va qiziquvchilik olovini yoxadigan uchaundir”

Y.A. Suvorov

Psixolog olimlarning aytishiha, ta'llim-tarbiya jarayonida o'yniqli texnologiyalardan foydalanish shaxsni kamol topishida, har tomonlarda rivojlanishiha muhim ahamiyat kashb etar ekan. Shunga ko'ra, ta'llim-tarbiya jarayonida o'yniqli texnologiyalardan foydalanish talaba-yosh-larning muloqotga kirishishida ko'nikma va malakalarini shakllantirib, bilim saviyasini oshirishga, ma'noviy va moddiy hayot uyg'unligi fazilatlarini takomillashtirish uchun e'sha ahamiyatiga ega desak mubolog'a bo'lmaydi.

Bu haqida psixologlar ham o‘z murohazalarini bildirishgan (9-chuzma).

9-chienna

B.N. Unacademy o'vno
dilwargi nam De Tum
alisa pribadiyah.
unacademy
unacademy

L. S. Vigodskij-
o'sjinni bolening

A.N. Leontev-oymga
shaxsning
hayotidagi amalga
oshirib bo'lmaydigan

O'ynli texnologiyalar shaxsning hayotiy faoliyatida muhim o'rnatish davomi etmoqda. O'ynli texnologiyalardan mahoratkorona foydalanish shak-shubhasisiz motivatsiya mehnatzimlarini xarakatga keljicibga xo'naltiradi. Ta'lim jarayonida o'ynli texnologiyadan soyda-

Ianish orqali nimaga erishish mumkin? Degan savolga tadqiqotchilar shunday javob berishadi (10-chizma).

10-chizma

O'yin texnologiyalaridan foydalanishning muddati ta'lim shaxslarini hajmi uchun foydalanishni va mazlumdarimizni tanoxsa qo'shilish.

Har qanday ta'lim tarbiya jarayonida qo'llaniladigan o'yinli texnologiyalar ma'lum funktsiyalarni bajarishga bag'ishlangan bo'ldi. Ular quyidagilardan iborat: (11-chizma)

11-chizma



Tadqiqotchilar tomonidan o'yinli texnologiyalarning faoliyat, jarayon va o'qitish metodlari o'rganilgan bo'lib ular quyidagicha ifodalanadi (12-chizma).

12-chizma

O'YIN FAOLIYAT SIFATIDA - maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarini tahlil qilishni qarmoq oladi va bunda shaxs sub'ekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi.

JARAYON NIFATIDA — o'yin nifatida (O.K. Scherko
ni'micha) qurashqlarini querab oladi:

- o'yinchilarning o'smagan collari;
- Im rollarini igan etish yositosi bo'lgan o'yin bo'shatuvchi;
- prodromelarni, ya'ni hujayiq narshalmi shartli, o'smalar
o'rniida qo'llash;
- o'yinda ishlash uchun chavchitning real o'smo monokubatasi;
o'smada shartli ravishda yaratilgan suqil (mummin) — provalam.

O'yindan iushunchalar, mayev va hamo o'qiv prodmen bo'limini
o'shashtirishda **U'QITISH METODI** va **MUSTAQOL
TEKNOLOGIYA** sifatida foydalaniladi.

O'yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq,
nazorat) tarzida tashkil etiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash mukkin bo'lgan o'yinli
texnologiyalar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. (13-chizma).

13-chizma

Bilish maqsadi bilimlar doirasasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatida
bilim, malaka va ko'nikimalarni qo'llash, va rivojlantirish, mehnat qili-
sh fa'nikmalarni rivojlamishni kengayrichiga qaratilgan bo'ladi.



Lavozim — maqsadi mustaqillik, ozodlik, inchiyalish, muayyan
sundusuvlar, nuqtai nazarlar, ma'naviy, omilik, ya'ni dene o'sashish
shakillantirishdagi barkorlikni kollektiv-emu, jumonga kirishib keta-
shish, kommunikativlikda surʼonishlarni qaratilgan bo'ladi.



Faydalash — o'yinlar diqqat, solira, nafq, infish,
qayosalash malakasi, cheng'ishchik, o'yishashini topish, fons, bayoh,
yodir qobiliyat, empatiya, riflesiya, optimul zulmus iipa olish,
o'qin faoliyatini moʼlyovchi shahar rivojlantirishiga qaratilgan.

Haqiqat, jismoni, e'yinlari jamiyatning me'yorlari va qadriyatlariiga jalgilish, mutut sharoitlariga ko'nikish, chitreslarni nazorat qilish, o'z-o'sha muddatani, mukoboliga o'tqandish, paxtumayganligini namuna etish.

Oliy maktab ta'lif jarayonida tadbirkorlik o'yinlariga alohida ahamiyat beriladi.

Tadbirkorlik o'yinlarini mashhur psixologlar L.S. Vigodskiy, A.N. Leontev, P.Ya. Galperin va boshqalarning ishlarida nazariy asoslangan.

Tadbirkorlik o'yinlari o'z xarakteriga ko'ra insonning shaxsiy xislatlarini shakllantirishning amaldagi vositasi hisoblanadi.

